

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA
SUV XO'JALIK VAZIRLIGI**

ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

IQTISODIYOT VA BOSHQARUV FAKULTETI

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»

fakultet dekani, i.f.n.

X.X.KOMOLOV _____

«___» _____ 2014 y.

«HIMOYAGA RUXSAT ETAMAN»

kafedra mudiri, i.f.n.

S.Maxmudov _____

«___» _____ 2014 y.

**“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” TA'LIM
YO'NALISHINING BITIRUVCHISI**

VOHOBOVA DILOROMNING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

*Mavzu: Xo'jaobod tumanidagi Xo'jaobod Gilmon fermer xo'jaligi
tovar-moddiy zaxiralarning hisobini yuritish va uning tahlili.*

**BMI rahbari
katta o'qituvchi.:**

A.X.KOMILOV

Bajaruvchi:

D.VOHOBOVA

ANDIJON – 2014

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA
SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO'JALIGI INSTITUTI

IQTISODIYOT VA BOSHQARUV FAKULTETI

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”

Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasining
mudiri i.f.n.

S.Q.Maxmudov_____

«____» _____ 20__ yil.

**Kunduzgi bo'lim buxgalteriya hisobi va audit ta'lim yo'nalishining
4-bosqich talabasi Vohobova Diloromning
bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun**

TOPSHIRIQ

- 1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi:** institut rektorining 2013 yil _____dagi № _____ sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.
- 2. BMIning mavzusi:** *Xo'jaobod tumaniidagi Xo'jaobod Gilmon fermer xo'jaligi tovar-moddiy zaxiralarning hisobini yuritish va uning tahlili*
- 3. Bitiruv malakaviy ishni tugatish vaqti** 5 may 2014 yil.
- 4. Bitiruv malakaviy ishning asosiy bo'limlari.** BMI kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.
- 5. Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun kerakli ma'lumotlar.** «Buxgalteriya xisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining BXMSlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari, I.A.Karimov asarlari, mavzuga oid adabiyotlar, hamda **“Xo'jaobod Gilmon”** fermer xo'jaligining 2012-2013 yillardagi yig'ma va yilik hisobotlari hamda mavzuga oid bo'lgan boshqa ma'lumotlari.
- 6. Bitiruv malakaviy ishda foydalaniladigan jadvallar.** Bitiruv Malakaviy ishda mavzu mohiyatini yoritishga yordam beradigan 1 ta chizma, 5 ta jadval, 6 ta uzatma tuzilib, ulardan 5 tasi bevosita ximoya jarayonida foydalaniladi.

M u n d a r i j a

Bet

<i>Kirish</i>	5-7
<i>I BOB. TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBI VA TAHLILINING NAZARIY HAMDA USLUBIY ASOSLARI.....</i>	8-26
<i>1.1. Tovar-moddiy zahiralar hisobini tashkil etishning maqsadi va ahamiyati.....</i>	8-15
<i>1.2. Tovar - moddiy zahiralar hisobining me'yoriy, huquqiy asoslari.....</i>	16-26
<i>II BOB. XO'JAOD TUMANIDAGI XO'JAOD GILMON FERMER XO'JALIGIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI YURITISH ASOSLARI.....</i>	27-59
<i>2.1. Xo'jaod tumanidagi "Xo'jaod Gilmon" fermer xo'jaligi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....</i>	27-36
<i>2.2 Xo'jaod tumanidagi Xo'jaod Gilmon fermer xo'jaligida tovar-moddiy zahiralar harakatini xujjatlashtirish.....</i>	37-45
<i>2.3. Xo'jaod tumanidagi Xo'jaod Gilmon fermer xo'jaligida tovar-moddiy zahiralar sintetik va analitik hisobi.....</i>	45-56
<i>III Bob. TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNING HISOBINI YURITISH VA UNING TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH.....</i>	56-64
<i>3.1. Xo'jaod tumanidagi Xo'jaod Gilmon fermer xo'jaligida tovar-moddiy zahiralar tahlili.....</i>	56-60
<i>3.2. Tovar-moddiy zaxiralarning hisobini takomillashtirish.....</i>	61-64
<i>XULOSA VA TAKLIFLAR.....</i>	65-66
<i>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</i>	66-71

**XO'JAOBOD TUMANIDAGI XO'JAOBOD GILMON FERMER
XO'JALIGI TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNING HISOBINI YURITISH
VA UNING TAHLILI**

REJA:

Kirish

**I BOB. TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBİ VA TAHLILINING
NAZARIY HAMDA USLUBIY ASOSLARI**

1.1. Tovar-moddiy zahiralar hisobini tashkil etishning maqsadi va ahamiyati

1.2. Tovar - moddiy zahiralar hisobining me'riy, huquqiy asoslari

**II BOB. XO'JAOBOD TUMANIDAGI XO'JAOBOD GILMON FERMER
XO'JALIGIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI YURITISH
ASOSLARI**

2.1. Xo'jaobod tumanidagi "Xo'jaobod Gilmon" fermer xo'jaligi asosiy iqtisodiy
ko'rsatkichlari tahlili

2.2 Xo'jaobod tumanidagi Xo'jaobod Gilmon fermer xo'jaligida tovar-moddiy
zahiralar harakatini xujjatlalashtirish

2.3. Xo'jaobod tumanidagi Xo'jaobod Gilmon fermer xo'jaligida tovar-moddiy
zahiralar sintetik va analitik hisobi

**III BOB. TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNING HISOBINI YURITISH VA
UNING TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH**

3.1. Xo'jaobod tumanidagi Xo'jaobod Gilmon fermer xo'jaligida tovar-moddiy
zahiralar tahlili

3.2. Tovar-moddiy zaxiralarning hisobini takomillashtirish

XULOSA VA TAKLIFLAR.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, xamda ularning ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) faoliyatini takomillashtirib borish dolzarb masala hisoblanadi. Chunki xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy jixatdan rivojlanishi va iqtisodiy samaradorligining ortishi bevosita xalq xo'jaligining taraqqiy ettirishining muhim omili hisoblanadi. Oxirgi yillarda yalpi ichki maxsulotda xususiy sektorning ulushi doimiy ravishda ortib kelmoqda.

Jumladan mamlakatimizda bo'layotgan o'zgarishlarni baxolar ekan xurmatli Prezidentimiz I.A.Karimovning o'z ma'ruzasidagi fikrlari buning isbotidir "Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyasiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi.

O'tgan yil yakunlariga ko'ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi. Bu avvalambor xorijiy investisiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o'ylab yondashish natijasidir"¹.

Demak, respublikamizda o'tgan yillar davomida qishloq xo'jalik mahsulotlari miqdorining o'sishi ushbu tarmoqni jadal rivolanayotganligini ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu tarmoq fermer xo'jaliklarining foydaliligini oshirish uchun ularning tovar-moddiy zaxiralarining tannarxini pasaytirish va ularni to'g'ri hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi va u hozirgi kunda dolzarb muammolardan biridir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining asosiy fermer xo'jaliklarda tovar-moddiy zaxiralar hisobini nazariy jixatdan keng yoritish, amaliy jixatidan hozirgi xolatini o'rganish va ularning

¹ "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi "Xalq so'zi" gazetasi №3

harakatini tahlil qilishni amalga oshirishdan iboratdir.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan xolda Bitiruv malakaviy ishining vazifalari shakllanadi. Bu bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirish mumkin:

- fermer xo'jaliklarda tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil etish tartibini o'rganish;
- fermer xo'jaliklarda tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil etishning me'yoriy-xuquqiy asoslarini o'rganish;
- fermer xo'jalikaning asosiy faoliyatini tahlili, uning iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'rganish;
- fermer xo'jalikda tovar-moddiy zaxiralarini hisobga olishni yaxshilash yo'llari va uni joriy etishning mexanizimlarini aniqlash;
- fermer xo'jaliklarning tovar-moddiy zaxiralaridan samarali foydalanish yo'llarini chuqurroq yoritishdan iboratdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda tovar-moddiy zaxiralar hisobini yaxshilash yo'llarini o'rganib chikishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. Ishning nazariy asoslari bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, elektron ma'lumotlar, internet ma'lumotlari va boshqa adabiyotlardan foydalanildi.

Ishning uslubiy asoslari bo'lib, avtonom va integrallashgan usullari, dialektik usul, va boshqa usullardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot ob'ekti va predmeti.

Tadqiqot ob'ekti bo'lib, xo'jaobod tumanidagi xo'jaobod gilmon fermer xo'jaligining tovar-moddiy zaxiralari hisobi va uning hisoboti ma'lumotlari hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti bo'lib, fermer xo'jaliklarda tovar-moddiy zaxiralar hisobini uslubiy asoslari, moliyaviy hisobni, jumladan, tovar-moddiy zaxiralar hisobini yaxshilash yo'llarini aniqlash, xamda milliy va xalqaro tajribalari asosida bozor iqtisodiyotiga moslashtirish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishini tarkibiy tuzilmasi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, ettita bo'lim, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

Uning kirish qismida ishning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, nazariy va uslubiy asoslari, predmeti, ob'ekti va tarkibiy tuzilmasiga to'xtalganmiz.

I BOB. TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBI VA TAHLILINING NAZARIY HAMDA USLUBIY ASOSLARI

1.1. Tovar-moddiy zahiralar hisobini tashkil etishning maqsadi va ahamiyati.

Fermer xo'jaliklari hozirgi kunda mustaqil xo'jalik yurtish sub'ektlari sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar. Ularning rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishlari uchun barcha sharoitlar yaratib berildi. Buning natijasida ular tomonidan yaratilayotgan mahsulotlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lmoqda. Muxtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Qishloqlarimiz hayotida yuksak natijalarga erishishda, avvalo, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy shakli sifatida fermerlikni yo'lga qo'yganimiz va uning rivoji uchun keng imkoniyatlar ochib berganimiz hal qiluvchi rol o'ynadi.

Bugungi fermer xo'jaliklari samarali faoliyat yuritish uchun o'z ixtiyorida ijara asosidagi yetarlicha ekin maydonlariga ega bo'lgan, yuksak samarali zamonaviy texnika bilan ta'minlangan, ilg'or texnologiyalarni puxta egallagan yirik xo'jaliklardir. Muxtasar aytganda, ular qishloqlarimizning tayanch ustunidir.

Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birga, ularni chuqur qayta ishlash, qurilish ishlarini amalga oshirish va qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlarda samarali faoliyat ko'rsatmoqda va o'z istiqbolini topmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda bunday fermer xo'jaliklarining soni 18 mingdan ziyodni tashkil etmoqda."².

Jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuv sharoitida O'zbekiston buxgalteriya hisobi tizimini moliyaviy hisobotlarning halqaro andozalari talablariga mos holda tashkil qilish, keyingi yillarda dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, bu jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi kechaetgan davrda muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikada buxgalteriya hisobini xalqaro hisob andozalari talablariga muvofiq tashkil etish va yuritish, shuningdek, iqtisodiyotni rivojlangan davlatlarda yuritilayotgan buxgalteriya hisobi tizimi uchun zarur bo'lgan eng asosiy

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 2014 yil 18 yanvar.

tamoyillarni respublikamiz xo'jalik sub'ektlarida joriy etish muhim hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi ijtimoiy xayotimizning ajralmas muhim bir bo'g'iniga aylandi. Iqtisodiy xayotimizda sodir etilayotgan son jixatdan katta, sifat jihatdan esa murakkab hodisalar buxgalteriya hisobining yordami bilan biz uchun tushunarli bo'ladi.

Ma'lumki, xozirgi sharoitda fermer xo'jaliklar faoliyatini asosi bu o'z harajatlarini o'zlari ta'minlashdan iborat, shuning uchun fermer xo'jaliklarda moddiy boyliklardan samarali foydalanish ustidan nazorat o'rnatish, xujjatsizlikka qarshi kurash va ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxida moddiy harajatlarning kamaytirish masalalariga katta e'tibor berilishi kerak. Bundan tashqari xo'jalik faoliyati jarayonining yakuniy bosqichidan olinadigan tayyor mahsulotlarning tannarxidagi sarflangan xom ashyo va materiallarning ulushini kamaytirishni ahamiyati shundaki, talab va taklifdan kelib chiqqan holda ularga o'rnatilgan baho haridorlilik darajasini belgilaydi, chunki ushbu baholarni tartibga solib turuvchi omil bu tannarxdir. Shuning uchun ham ishlab chiqarishni tashkil qilayotganda tabiiy va moddiy resurslardan unumli foydalanishi talab qilishi kerak. Chunki, ishlab chiqarishning moddiy sharoitlaridan biri mehnat buyumlari hisoblanadi. Mehnat buyumlari tarkibiga asosan xom ashyo va materiallar, yoqilg'i, energiya, extiyot qismlar, yordamchi materiallar va shunga o'xshash aktivlar kiradi. Asosiy vositalardan ushbu aktivlarni farqi shundaki, ular fermer xo'jalikni oborot mablag'larini tashkil qilib, ishlab chiqarish jarayonida o'zining qiymatini to'laravishda mahsulot tannarxiga o'tkazadilar. Xozirgi inqirozga qarshi kurash sharoitda fermer xo'jalikdagi mavjud ishlab chiqarish zahiralardan foydalalanish sifatini yaxshilash, ulardan tejamkorlik bilan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada prezidentimiz I.A. Karimov o'zining "Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asarida aks ettirib o'tganlaridek "Iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini yanada kuchaytirish, aholi farovonligini yuksaltirish ko'p jihatdan bizning mavjud

resurslardan tejamli foydalana olishimizga bog'liqdir"³. Buning uchun hisob va hisob ishlarini tartibga solish zarurdir, ya'ni tovar- moddiy zahiralarini butligini ta'minlash, ularni kabul qilinishi, saqlanishi va realizasiya qilinishi ustidan nazorat o'rnatish kerak.

Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitda fermer xo'jaliklar o'z faoliyatlarini qat'iy tejamkorlik asosida tashkil qilishlari fermer xo'jalik faoliyati istiqbolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, fermer xo'jaliklar o'z mavqeini saqlab qolishi uchun bozorga arzon va sifatli mahsulot taklif qilishlari zarur. Buni bir qator sabablari bor. Birinchidan hozirgi raqabot sharoitida fermer xo'jalik va tashkilotlar o'z mahsulotlarini yangi tejamkor texnologiyalarda ishlab chiqib mahsulot sifatini yaxshilashga erishsa, ayrim fermer xo'jaliklar arzon xom-ashyodan foydalanib mahsulot tannarxini arzonlashtirishga erishmoqdalar. Demak, hozirgi sharoitda arzon va sifatli mahsulot ishlab chiqargan fermer xo'jalik va tashkilotlar o'z mavqeini saqlab qolishlari mumkin.

Bugungi kunda har bir fermer xo'jalik ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishda, avvalo yuqori foyda olishi kerak. Buning uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini kamaytirish ya'ni, mahsulotga sarflanayotgan harajatlarni imkon darajasida tejash, har bir chorak bo'yicha ishlab chiqarilayotgan mahsulotning rentabellik darajasini tahlil qilib borish va uning natijalariga ko'ra fermer xo'jalik kelgusi ishlarini rejalashtirish, foydalanilmayotgan ichki rezervlarni qidirib topish va uni to'liq ishlab chiqarishga jalb etishni taqozo etmoqda.

Fermer xo'jalik foyda olish uchun birinchi navbatda mol mulk samaradorligini oshirish va ulardan samarali foydalanishi kerak. Fermer xo'jalikni tegishli mulk bilan to'liq ta'minlash belgilangan rejadagi ko'rsatkichlarini bajarish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Fermer xo'jalik va tashkilotlarning barcha aktivlari ya'ni, uzoq muddatli va joriy aktivlardan tashkil topadi. Joriy aktivlar umumiy aktivlar tarkibida salmoqli

³ Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: O'zbekiston, 2009yil.

o'rin tutadi.

Fermer xo'jaliklardagi barcha mavjud aktivlar ulardan foydalanish muddatiga qarab ikki turga bo'lib o'rganiladi va hisobga olib boriladi:

- Bir yildan ortiq muddatda foydalaniladigan aktivlar – uzoq muddatli aktivlar.
- Bir yilgacha foydalaniladigan aktivlar – qisqa muddatli aktivlar yoki aylanma mablag'lar.

Fermer xo'jalikning joriy aktivlari – uning aylanma fondlar, muomala fondlari va boshqa harakatdagi aktivlarda turgan pul mablag'laridir. Ya'ni bir yil davomida pulga aylantirish mumkin bo'lgan xo'jalikning har qanday aktivlaridir.

- debitorlik qarzlari
- pul mablag'lari
- tayyor maxsulot va tovarlar
- xom ashyo va materiallar
- ishlab chiqarish jarayoni

Joriy aktivlarni odatda pulga aylanish tezligiga, ya'ni, likvidlik darajasiga qarab quyidagi tartibda turkumlanadi:


1. Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari;
2. qisqa muddatli investisiyalar;
3. debitorlik qarzlari;
4. tovar–moddiy zahiralar;
5. kelgusi davr harajatlari.

Fermer xo'jaliklarda tovar–moddiy zahiralar joriy aktivlarni salmoqli qismini egallagani bois, bitiruv malakaviy ishini aynan tovar–moddiy zahiralar hisobi mavzusi tanlab olingan. chunki, tovar–moddiy zahiralaridan samarali foydalanish mahsulot tannarxini kamayishiga va natijada sof foydani ko'payishiga olib keladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar–moddiy zahiralar hisobini tashkil etish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish fermer xo'jaliklarning moliyaviy holatini yaxshilash uchun juda katta ahamiyatga egadir. Negaki, tovar–moddiy zahiralaridan samarali foydalanish fermer xo'jalikning maliyaviy natijasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Fermer xo'jaliklarda tovar–moddiy zahiralar hisobini tashkil qilishning maqsadi tovar–moddiy zahiralar bo'yicha xo'jalik muomalalarini buxgalteriyada o'z vaqtida va to'liq hisobga olish hamda ularni nazoratini tashkil etishdan iborat.

Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda fermer xo'jalikni moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi ularni belgilangan me'yorlarga asosan ishlatilishi, ularni baxolash va sotish to'g'risida ma'lumotlar fermer xo'jalik buxgalteriyasi tomonidan yetkazib beriladi. Shuning uchun tovar- moddiy zahiralarini harakatini hisobini fermer xo'jalik buxgalterlari tomonidan o'z vaqtida, to'g'ri olib borilishi katta ahamiyatga egadir, chunki buxgalteriya hisobi ma'lumotlari o'zida mahsulotning tannarxini pasaytirish imkoniyatlarini, moddiy boyliklardan unumli foydalanish, sarflash. me'yorini pasaytirish, tovar-moddiy qiymatliklarni talabga javob beradigan darajadagi saqlash va qo'riqlash va boshqa tovar- moddiy qiymatliklar bilan bog'liq jaraenlar to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish lozim. Ushbu talabni bajarish uchun tovar-moddiy zahiralarini hisobini tashkil qilish borasida buxgalteriya hisobi quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

Xo'jalik yurituchi sub'ektlarda tovar-moddiy zahiralarni hisobini tashkil qilish vazifalari



Ushbu vazifalarni bajarish uchun fermer xo'jalikda modiy-texnika ta'minotini puxta tashkil etish ombor va tortish, o'lchash xo'jaligini yaxshi xolatda bo'lishini ta'minlash; mahsulot birligiga xom ashyo, materiallar. Yarim tayer masulotlar, butlovchi buyumlar detallar, yoqilg'i va boshqa boyliklar sarfining ilg'or real me'yorlarini belgilash zarur.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni buxgalteriyasi tomonidan yuqorida qayd etilgan tovar-moddiy zahiralarni hisobini vazifalarini to'la bajarish uchun fermer xo'jalikda marketing bo'limi zarurdir, chunki bu bo'lim mol etkazib beruvchilar bilan shartnoma tuzishda faol qatnashadi, keyinchalik ta'minlash grafisini nazorat

qiladi, uning tarkibi va kabul qilayotganda aniqlangan kamomadlari bo'yicha mol yetkazib beruvchilarga da'volar bildiradi va jarima solinadi. Agarda yo'kolgan tovar-moddiy zahiralar bo'lsa ularni topish chora tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Buxgalteriya tomonidan tovar-moddiy zahiralarini hisobi quyidagi tamoyillarga asosan amalga oshiladi:

- Moddiy ishlab chiqarish zaxiralari buxgalteriya hisobiga o'zining xaqikatdagi tannarxi bo'yicha qabul qilinadi. Xaqikatdagi qiymat bo'yicha baxolash, baxolashning bazaviy turi bo'lib hisoblanadi, lekin bu baholashning yagona turi emas, chunki agarda inventarizasiya o'tkazish paytida moddiy qiymatliklar bo'yicha kamomad aniqlansa, bu kamomad bozor bahosi kerak. Yoki ba'zi bir sabablarga ko'ra tekin material qiymatliklar keltirilgan bo'lsa ushbu qiymatliklar ham bozor bahosi bo'yicha baxolanishi lozim.
- Tovar-moddiy zahiralarining tannarxi harid qilish va tovar- moddiy zahiralarini ularning saqlanadigan joyiga etkazib berish va tegishli holatga keltirish bilan bog'liq barcha harajatlar va transport tayyorlov harajatlarini o'z ichiga oladi. Tovar-moddiy zahiralarini sotib olish bilan bog'liq harajatlarga sotib olish qiymati, import bojlari va yig'malari, mahsulotni sertifikatlashga oid harajatlar, ta'minot, vositachilik tashkilotlariga to'langan komission taqdirlashlar, soliqlar, mahsulotni sertifikatlashga oid harajatlar, ta'minot, vositachilik tashkilotlariga to'langan komission taqdirlashlar, soliqlar (fermer xo'jalik keyinchalik hisoblashishga o'tkazish ko'rinishidagi qaytarib oladigan, masalan QQSdan tan tashqari), transport tayyorlov harajatlari va bevosita zahiralarini sotib olish bilan bog'liq bo'lgan boshqa harajatlar kiradi. Ba'zi xolatlarda material qiymatliklar hisob baxolari bo'yicha yuritilishi ham mumkin, ya'ni reja tannarxi. Hisob baxolarda hisobga olinganda xaqikatdagi tannarxning ularni ko'rsatilgan baholariga oid qiymatidan tafovutlar summasi va foizlari har oyida hisob- kitob qilinadi.
- Qiymati harid qilish chog'ida chet el valyutasida belgilangan tovar-moddiy zahiralarini buxgalteriya hisobiga qabul qilish sanasiga bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning kursi bo'yicha so'mlarda amalga oshiriladi.

Agarda keyinchalik valyutani kursi o'zgarsa tovar - moddiy zahiralarni qiymati qaytadan baxolanmaydi.

- Tovar-moddiy boyliklarni ishlab chikarishga berish paytida (tovarlarni sotish vaqtida) ularning baholanishi bo'yicha amalga oshiriladi: o'rtacha tannarxi bo'yicha (AVECO), harid qilishlar vaqti bo'yicha birinchi haridlar tannarxi bo'yicha(FIFO). Tavsiya etilgan AVECO usulidan foydalanganda har bir birlikning qiymati davr boshiga bo'lgan o'xshash birliklarning o'rtacha o'lchov qiymatidan va davr mobaynida harid qilingan yoki ishlab chiqarilgan o'xshash birliklar qiymatidan kelib chiqib belgilanadi. FIFO usuli ko'pgina fermer xo'jaliklar uchun qulay va haqiqatga rostroq usuli bo'lib hisoblanadi. Ushbu usulni mazmuni shundan iboratki, oldin harid qilingan tovar- moddiy zahiralarni birliklari birinchi bo'lib sotiladi, oxirgi qabul qilingan tovar - moddiy boyliklar eng oxirgi bo'lib sotiladi.

Tovar-moddiy qiymatliklar ikkita baxolashdan eng pastini haqiqatdagi tannarxi (harid qilish bahosi, ekin ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha ekin bozor baxosi sof sotish qiymati) bo'yicha hisobga olinadi. Tovar - moddiy zahiralarning tannarxi ularni harid qilish harajatlari, ta'minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlarga, tovar birjalari xizmatlari qiymati bojxona to'lovlari, chet tashkilotlar kuchlari amalga oshiriladigan tashish, saqlash va yetkazib berish harajatlari tashkil topadi.

Sof sotish qiymati esa tovar- moddiy zahiralarni ishlab chiqarishning nihoyasiga yetkazilishi va mahsulotning sotilishi bilan bog'liq butlashlarga oid chiqimlar chegirilgan holda realizatsiya qilishning bahosidir.

1.2. Tovar - moddiy zahiralar hisobining me'yoriy, huquqiy asoslari.

Respublikamizda buxgalteriya hisobini rivojlantirish hamda uni jahon talablari darajasiga ko'tarilishini ta'minlash maqsadida xukumatimiz tomonidan yetarlicha me'yoriy va huquqiy asoslar yaratilmoqda. Bu borada 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni fikrimizni yorqin misoli deb ko'rsatishimiz mumkin. Ushbu qonunni qabul qilinishi hisob ishlarini bir muncha tartibga soldi deb ishonch bilan ayta olamiz.

Ayrim adabiyotlarda buxgalteriya hisobi ob'ektlarini tartibga soluvchi qonun xujjalarini turli darajaga bo'lib o'rganib kelinmoqda. Biz ham bitiruv malakaviy ishimizda tovar-moddiy zahiralar hisobini tartibga soluvchi asosiy qonun hujjatlarini bo'lib o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Birinchi darajada - qonun xujjatlari.

Ikkinchi darajada - asosiy qoidalar majmui, ya'ni buxgalteriya hisobi milliy standartlari.

Uchinchi darajada - mamlakat bo'yicha ishlab chiqiladigan, buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar.

To'rtinchi darajada - hisob siyosatini belgilash va xujjatlar aylanmasini tashkil etish bo'yicha korxonada chiqarilgan ichki ish xujjatlari.

Birinchi darajali qonun xujjatlariga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa tegishli qonun xujjatlarini kiritishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi xo'jalik muomalalarini me'yoriy tomondan tartibga solib bersa, Soliq Kodeksi esa davlat oldidagi yuzaga keladigan xuquq va majburiyatlari belgilab berilgan.

Korxona va tashkilotlarning xo'jalik hisobini yuritish va tartibga solishda O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur Konunning 4-moddasiga binoan buxgalteriya hisobining ob'ektlari korxonaning asosiy va joriy aktivlari, majburiyatlari, xususiy kapitali, daromadlar, xarajatlar, foyda va zaralari hamda ularning harakati bilan

bog'liq xo'jalik maomalarini hisoblanadi. Demak, joriy aktivlarni hisobga olish va hisobotini tashkil etish buxgalteriya hisobi qonundagi belgilab berilgan. Yuqoridagi qonun talablaridan kelib chiqib qator vazirlik va idoralar sohaga tegishli qaror, nizom va standartlarni ishlab chiqib amaliyotga joriy etmoqdalar.

Ikkinchi darajali me'yoriy xujjatlari O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya Hisobining Milliy Andozalari hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2006 yil 15 iyundagi 52-sonli buyrug'i bilan tasdiklangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006 yil 17 iyulda 1595-son bilan ro'yxatga olingan 4-sonli "Tovar- moddiy zahiralari" nomli O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartidir. Ushbu standart tovar-moddiy zahiralari hisobini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy xujjatlardan biri hisoblanadi. "Tovar- moddiy zahiralari" nomli 4-son BHMAga asosan tovar-moddiy zahiralarni hisobda aks ettirish va baholash tartibi ko'rsatib berilgan.

Yuqoridagi ta'kidlab o'tganimizdek, buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun joriy aktivlari hisobini tashkil etishni belgilab bersa, 4-son BHMAga asosan tovar-moddiy zahiralarni hisobda aks ettirish va baholash tartibi ko'rsatib berilgan. Joriy aktivlarni turlari bo'yicha hisobga olib borish usuni esa 21- sonli BHMA «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma»ga asosan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti 21-son «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni kullash buyicha yo'riqnoma»da aktivlarning uzoq muddatli va kiska muddat aktivlarga bulib hisobda aks ettirilishi batafsil ko'rsatilgan.

Ushbu standartga asosan kiska muddatli aktivlarni hisobga oluvchi xar bir subschyotlarning qachon qo'llanilishi va uning debet va kredit tomonlarida nimalar aks ettirilishi yoritilgan. Buxgalteriya hisobi milliy standartlarida ko'rsatilgan usullaridan birini tanlash va uni o'z korxonasida qo'llash uchun buyruq asosida

belgilab olish korxona hisob siyosati hisoblanadi.

Aylanma mablaglar, jumladan materiallar daval asosida qayta ishlashga olinsa yoki berilsa u bilan bog'liq operatsiyalarni huquqiy va soliqqa tortish masalalari asoslari, shuningdek daval asosida qayta ishlashga berilgan xom ashyo bilan bog'liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish va hujjatlarda rasmiylashtirish (analitik hisobi) tartibi me'yoriy xujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Daval asosida qayta ishlashga berilgan yoki olingan materiallar deb nomlanadigan operatsiyalarning umumiy qoidasi quyidagicha. Bunda ma'lum bir mahsulotni sotib olishni maqsad qilgan tashkilot uni ishlab chiqarish uchun materiallarni sotib oladi va tegishli mahsulot ishlab chiqaruvchi tashkilotga ushbu materiallardan kerakli mahsulotini ishlab chiqarishga buyurtma beradi.

Daval xom-ashyo termini bu faqat buxgalteriya hisobi termini hisoblanadi. Fuqarolik qonunchiligi nuqtai nazaridan qaraganda aylanma mablag' bilan bog'liq operatsiyalar pudrat shartnomalarining bir turi hisoblanadi. Bunda davalga beruvchi va qayta ishlovchi o'rtasida tovar-moddiy zaxiralarni qayta ishlash, saralash yoki qo'shimcha qayta ishlash bo'yicha tuzilgan shartnomalar bo'yicha tomonlarning o'zaro munosabatlari Uzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining «Pudrat» nomli 37-bobida nazarda tutilgan me'yorlar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 631-moddasiga mu-vofiq pudrat shartnomasi bo'yicha bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig'iga binoan ma'lum bir ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi. Agar qonun hujjatlarida yoxud taraflar kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ishni bajarish uchun pudratchi tavakkal qiladi. Materiallarning tasodifan nobud bo'lish yoki tasodifan buzilish xavfi, agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, pudratchining pudrat shartnomasida shartlashilgan ishni topshirish muddati kelguncha materiallarni bergan taraf

zimmasida, bu muddatdan keyin esa ishni topshirishni kechiktirib yuborgan taraf zimmasida bo'ladi.

Buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi nizom va uslubiy xujjatlarni uchinchi darajali qonun xujjatlariga kiritishimiz mumkin. Buxgalteriya hisobida olib borilgan islohotlar boshida xarajatlar tarkibi to'g'risidagi nizomni qabul qilinishi bilan asoslashimiz mumkin. Ushbu nizomni qabul qilinishi eng asosiy masalalar bo'yicha o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Avval 1995 yilda keyinchalik 1999 yilda "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomni qabul qilinishi mamlakatimiz buxgalteriya hisobida tubdan o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'ldi. Ushbu Nizom xarajatlarning mohiyati, korxonaning hisobot davridagi foydasi bilan bog'likligidan kelib chiqib taqsimlashni belgilab berdi.

Korxonaning hisob siyosati to'rtinchi darajali me'yoriy xujjat bo'lib, ushbu hisob siyosatiga asosan korxonada mustaqil hisob tizimini tashkil qilinadi. Bunda asosiy vositalarga eskirish hisoblash usuli, tovar-moddiy zahiralarini tannarxini aniqlash usuli, ishchi buxgalteriya schyotlarini ishlab chiqish va boshqa yagona tizim belgilab olinadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish jarayonida xilma xil material boyliklardan foydalanadilar. Materiallardan korxonalarda turlicha foydalaniladi, ulardan bir xillari ishlab chiqarish jarayonida to'la ist'emol qilinadi, boshqalar faqat o'z shaklini o'zgartiradi, uchinchilar biror bir tashqi o'zgarishlarsiz buyumlarga kiradi. Materiallar tovar moddiy zaxiralarning katta qismini tashkil etadi.

Tovar - moddiy zahiralariga olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Masalan, I.A. Zavalishina tovar- moddiy zahiralariga quyidagi ta'rifni bergan: "Zahiralariga tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishda foydalanish uchun yoxud sotish uchun, ishlab chiqarish jarayonida foydalanishga mo'ljallangan aktivlar kiradi".⁴

O. Bobojonov va K. Jumaniyozov tovar-moddiy zahiralarini quyidagicha

⁴ I.A.Zavalishina.Soliqlar va bojxona habarlari gazetasi kutubxonasi.YAngicha buxgalteriya hisobi.2003 y 262 bet.

ta'riflashgan: "Tovar- moddiy zahiralar asosan sotish uchun olingan va ishlab chiqarilgan tovarlar, hamda ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan aktivlardan tashkil topgan bo'lib, ular sub'ektning faoliyatida asosiy o'rinlardan birini egallaydi".⁵

B.Nidlz, X.Anderson va D.Kolduellar tomonidan "Printsipy buxgalterskogo ucheta" Moskva "Finansy i statistika" 2003 yilda nashr etilgan adabiyotga asosan tovar- moddiy zahiralariga quydagicha ta'rif berilgan: "Tovar zahiralar o'z tarkibiga firmada mavjud bo'lgan barcha tovarlarni, jumladan sotish uchun mo'ljallangan va jo'natilganlar kiritiladi. Ular aylanma mablag'lar tarkibiga, ya'ni bir yil davomida aylanib pul ko'rinishida namoyon buladi".⁶

Demak, tovar- moddiy zahiralar so'zining eng keng ma'nosida qayta sotish uchun xarid qilingan va saqlanadigan tovarlardir.

O'zbekiston Respublikasi 4 son BHMS "Tovar- moddiy zahiralar" ga muvofiq tovar - moddiy zahiralar bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning aktivlari bo'lib ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Ishlab chiqarish va hizmat ko'rsatish jarayonida ishlatilishi ko'zda tutilgan xom ashyo, materiallar, sotib olingan yarim tayyor maxsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'i, extiyot qismlari, material hamda arzon baholi tez eskiruvchi buyumlar, boshqa materiallar kiritiladi.

2. Tugallanmagan ishlab chiqarish.

3. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning odatiy faoliyatini borish chog'ida sotish uchun mo'ljallangan tayyor maxsulotlar va tovarlar kiritiladi.

Korxonalarda tovar - moddiy zahiralar tarkibida ishlatilmaydigan tovarlar ham bo'lishi mumkin, ularga:

- mijozning buyurtmasiga asosan tayyorlangan (yangi oldi sotdi bitimi bajarilgan), unga qarashli va jo'natishini kutayotgan tovarlar;
- konsignatsiyadagi tovarlar. Konsignatsiya bu komitent yeki konsignant deb ataladigan mulkdorning o'z tovarini boshqa korxona omborlarida

⁵ O. Bobojonov, K. Jumaniyev "Moliyaviy hisob" 2004 y. 209 bet

⁶ Nidlz B. Anderson X. Kolduell D. Printsipy buxgalterskogo ucheta .M.: 2003g

joylashtirishdir. Konsignator bunday tovarlarni o'zining moddiy zaxiralari tarkibiga kiritimasligi kerak, chunki realizatsiya davrigacha bu tovarlar jo'natuvchi konsignantning mulki hisoblanadi.

Har bir korxona buxgalteriya xizmatining asosiy vazifalaridan biri ularni to'g'ri hisobga olishni ta'minlashdir. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun tovar-moddiy zahiralarni to'g'ri turkumlashdir. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun tovar-moddiy zahiralarni to'g'ri turkumlash katta ahamiyatga ega.

Tovar-moddiy zahiralari ishlab chiqarishdagi roliga qarab quyidagicha guruhlanadi:

- xom ashyo va materiallar;
- yordamchi materiallar.

Xom ashyo va yarim tayyor maxsulotlar asosiy materiallarga o'xshab mahsulot asosini tashkil qiladi, masalan, paxta tozalash korxonalarida paxta tolasi, yog' zavodlarida chigit, metallurgiya zavodlarida temir ruda. Boshqa korxonalardan olinadigan mashina va agregatlarning turli detallari va boshqalar yarim tayyor mahsulotlar deb ataladi.

Asosiy materiallar deb, ishlab chiqarilayotgan mahsulot tarkibiga buyum sifatida kiradigan va shu mahsulotning asosini tashkil qiladigan mehnat buyumlariga aytiladi. Asosiy materiallarga ishlab chiqarish jarayonida bir marta bo'lsa ham ishlovdan o'tgan mehnat buyumlari kiradi.

Yordamchi materiallar ishlab chiqarilayotgan mahsulot tarkibiga kirib ularda sifat o'zgarishlar xosil qiladi, ya'ni mahsulotga ma'lum sifat yoki korxona xodimlarining mehnat sharoitini yaxshilash maqsadida ishlatiladigan har hil materiallar kiradi. Yordamchi materiallar mahsulotga chiroy beradi, mazasini o'zgartiradi, hamda mehnat vositalarini ta'mirlash, sozlash uchun ishlatiladi.

Yarim tayyor mahsulotlar deb ishlovchi bir tseksda to'la tugallanib boshqa tsekslarda davom ettiriladigan mehnat buyumlariga aytiladi. Yarim tayyor mahsulotlar sotib olinishi yoki korxonaning o'zida ishlab chiqarilishi mumkin. Shuning uchun sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar shu korxonaning o'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlardan ajratilgan holda hisobga olinadi.

YOqilg'i ishlab chiqarishdagi rolga qarab materiallarga o'xshab ketadi. YOqilg'ilar korxonalarda texnologik maqsadlarga, yoqilg'i sifatida va isitish yoqilg'isi sifatida ishlatiladi. Lekin yoqilg'ini halq xo'jaligidagi ahamiyati ularni yordamchi materiallardan alohida guruxlarga ajratishni taqozo qiladi.

Extiyot qismlar mashina, asbob uskuna va boshqa mehnat vositalarini ta'mirlash maqsadida ishlatiladi.

Idish va idish materiallari, sotilayotgan mahsulotlarni qadoqlash, o'rash, joylashtirish uchun hizmat qilib mahsulot bilan birgalikda sotiladi.

CHiqindilar korxonaning o'zida asosiy yoki yordamchi materiallar sifatida ishlatilishi mumkin, ayrim paytlarda esa boshqa korxonalarga sotiladi. CHiqindilar asosan xom ashyo va materiallarni qayta ishlash, mahsulot ishlab chiqarish natijasida paydo bo'ladi. CHiqindilar asosan xom ashyo va materiallarni qayta ishlash, mahsulot ishlab chiqarish natijasida paydo bo'ladi. CHiqindilarni hisobga olishda va ulardan maqsadli foydalanishga qaratish kerak.

SHuni aytib o'tish lozimki, materiallarni turkumlashda xar bir korxonani xususiyatini va sharoitlarini hisobga olish kerak, chunki bir turdagi materiallar mahsulotni yaratishdagi rolga qarab bitta korxonada asosiy material deb hisobga olinsa; boshqa korxonada esa yordamchi material bo'lib hisobga olinishi mumkin.

Qiymatliklarni tovar-moddiy zahiralari tarkibiga kiritish va ularning hisobini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1998 yil 27 avgustda 44 son bilan tasdiqlangan (4 BHMS) "Tovar-moddiy zahiralari" Buxgalteriya hisobining milliy standarti bilan tartibga solinadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitda fermer xo'jaliklari o'z faoliyatlarini qat'iy tejamkorlik asosida tashkil qilishlari xo'jalik faoliyati istiqbolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. CHunki, o'z mavqeini saqlab qolishi uchun bozorga arzon va sifatli mahsulot taklif qilishlari zarur. Buni bir qator sabablari bor. Birinchidan hozirgi raqabot sharoitida korxona va tashkilotlar o'z mahsulotlarini yangi tejamkor texnologiyalarda ishlab chiqib mahsulot sifatini yaxshilashga erishsa, ayrim korxonalar arzon xom-ashyodan foydalanib mahsulot tannarxini arzonlashtirishga erishmoqdalar. Demak, hozirgi sharoitda arzon va

sifatli mahsulot ishlab chiqargan korxona va tashkilotlar o'z mavqeini saqlab qolishlari mumkin.

Bugungi kunda har bir fermer xo'jalik ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etishda, avvalo yuqori foyda olishi kerak. Buning uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxini kamaytirish ya'ni, mahsulotga sarflanayotgan xarajatlarni imkon darajasida tejash, har bir chorak bo'yicha ishlab chiqarilayotgan mahsulotning rentabellik darajasini tahlil qilib borish va uning natijalariga ko'ra xo'jalik kelgusi ishlarini rejalashtirish, foydalanilmayotgan ichki rezervlarni qidirib topish va uni to'liq ishlab chiqarishga jalb etishni takozo etmoqda.

Xo'jalik foyda olish uchun birinchi navbatda mol mulk samaradorligini oshirish va ulardan samarali foydalanishi kerak. Xo'jalikni tegishli mulk bilan to'liq ta'minlash belgilangan rejadagi ko'rsatkichlarini bajarish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Korxona va tashkilotlarning barcha aktivlari ya'ni, uzoq muddatli va joriy aktivlardan tashkil topadi. Joriy aktivlar umumiy aktivlar tarkibida salmoqli o'rin tutadi.

Korxonalaridagi barcha mavjud aktivlar ulardan foydalanish muddatiga karab ikki turga bo'lib o'rganiladi va hisobga olib boriladi:

1. Bir yildan ortiq muddatda foydalaniladigan aktivlar – uzoq muddatli aktivlar.
2. Bir yilgacha foydalaniladigan aktivlar – qisqa muddatli aktivlar yoki aylanma mablag'lar.

Korxonaning joriy aktivlari – uning aylanma fondlar, muomala fondlari va boshqa harakatdagi aktivlarda turgan pul mablag'laridir. YA'ni bir yil davomida pulga aylantirish mumkin bo'lgan xo'jalikning xar qanday aktivlaridir.

Korxonalarda tovar–moddiy zahiralari joriy aktivlarning salmoqli qismini egallagani bois, bitiruv malakaviy ishini aynan tovar-moddiy zaxiralarning hisobini yuritish va uning tahlili mavzusi tanlab olingan. Chunki, materiallardan samarali foydalanish mahsulot tannarxini kamayishiga va natijada sof foydani ko'payishiga olib keladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar-moddiy zaxiralarning hisobini tashkil etish va

ulardan foydalanish samaradorligini oshirish korxonalarning moliyaviy holatini yaxshilash uchun juda katta ahamiyatga egadir. Negaki, ulardan samarali foydalanish korxonaning moliyaviy natijasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tovar-moddiy zaxiralar - keyinchalik sotish maqsadida normal faoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalaniladigan moddiy aktivlar.

Tovar-moddiy zaxiralar tashkilotlarda quyidagilar ko'rinishida bo'lishi mumkin:

a) mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish, ma'muriy ehtiyojlar va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan xom ashyo va materiallar, xarid qilinadigan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'i, idish va idishbop materiallar, ehtiyot qismlar, inventar va xo'jalik anjomlari, boshqa materiallar zaxiralari;

b) boquvdagi va yaylovdagi yosh hayvonlar, katta yoshdagi hayvonlar, parrandalar, asalari oilalari, sotish uchun asosiy podadan yaroqsiz qilingan (boquvga qo'yilmasdan) katta yoshdagi qoramollar, sotish uchun chetdan qabul qilingan qoramollar;

v) detallar, uzellar, buyumlarning tugallanmagan ishlov berilishi va yig'ilishi hamda tugallanmagan texnologik jarayonlar ko'rinishida tugallanmagan ishlab chiqarish. Ishlarni bajaradigan va xizmatlar ko'rsatadigan tashkilotlarda tugallanmagan ishlab chiqarish ular bo'yicha qabul qilish-topshirish hujjatlari rasmiylashtirilmagan va tashkilot tomonidan tegishli daromad tan olinmagan tugallanmagan ishlar (xizmatlar)ni bajarishga doir xarajatlardan tashkil topadi;

g) tashkilotda tayyorlangan tayyor mahsulot (ishlab chiqarish tsiklining pirovard natijasi - sotish uchun mo'ljallangan va qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda shartnomada yoki boshqa hujjatlarning talablarida nazarda tutilgan texnik va sifat tavsiflariga muvofiq keladigan ishlov berilishi (butlanishi) tugallangan aktiv);

d) boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslardan xarid qilingan (olingan) va tashkilotning odatdagi faoliyati davomida qo'shimcha ishlov berishsiz sotish yoki qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar. Bunda uzoq muddatli aktivlar ob'ektlari (binolar, inshootlar, transport vositalari, mulkiy (mutlaq) huquqlar va boshqalar) keyinchalik sotish yoki qayta sotish maqsadida xarid qilingan hollarda tovar bo'lib hisoblanishi mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralar buxgalteriya hisobining birligi tashkilot tomonidan mustaqil ravishda, ushbu zaxiralar to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumotlarni shakllantirish hamda ularning mavjudligi va harakati ustidan lozim darajada nazoratni ta'minlash maqsadida belgilanadi. Tovar-moddiy zaxiralarning xususiyatlari, ularni xarid qilish va ulardan foydalanish tartibiga bog'liq holda tovar-moddiy zaxiralarning birligi nomenklatura raqami, turkum, bir turdagi guruh va hokazo bo'lishi mumkin. Fermer xo'jaliklarida materiallari tarkibi, holati, harakati, miqdori, sotib olinishi yoki ishlab chiqarilishi, baholash va qayta baholash tartiblariga e'tibor berish lozim. Buxgalteriya hisobining ma'lumotlari o'zida mahsulotning tannarxini kamaytirish imkoniyatlarini moddiy boyliklardan unumli foydalanish, sarflar me'yorini pasaytirish, tovar-moddiy qiymatliklarning talabga javob beradigan darajadagi saqlash va qo'riqlash va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirishi lozim.

Fermer xo'jaliklarining rivojlanishi, taraqqiy etishi hamda iqtisodiy jihatdan baquvvat bo'lishi, mustaqil respublikamizning iqtisodiyotini barqarorlashishiga zamin yaratadi. Xalqimiz turmush darajasining yaxshilanishiga har tomonlama o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda mahsulotlar ishlab chiqarish xajmining oshishi, o'z navbatida tovar-moddiy zaxiralardan foydalanish ko'lamining xam kengayishiga olib keladi. Shuning uchun ulardan tejab, tergab foydalanish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Tovar-moddiy zaxiralar quyidagi xollarda aktiv sifatida tan olinadi:

- tashkilotga kelgusida aktiv bilan bog'liq iqtisodiy foyda kelib tushishiga ishonch bo'lsa;

- aktiv qiymatini ishonchli baholash mumkin bo'lsa;
- ularga bo'lgan mulk huquqi o'tsa.

Tovar-moddiy zaxiralarga bo'lgan mulk huquqi, ular bilan bog'liq xatarlar va mukofotlarning o'tish payti uning shartlari kelishiladigan yetkazib berish (oldi-sotdi) shartnomasi asosida belgilanadi.

Tovar-moddiy zaxiralar quyidagilar natijasida xo'jalikning buxgalteriya balansiga kiritilishi lozim:

- a) yetkazib berish (oldi-sotdi) shartnomasi bo'yicha xarid qilish;
- b) muassislardan tashkilotning ustav kapitaliga ulush sifatida kelib tushishi;
- v) muassislar tarkibidan chiqishda yoki tugatilayotgan tashkilotning mol-mulki uning ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanayotganda ilgari boshqa tashkilotning ustav kapitaliga kiritilgan tashkilotning ta'sis ulushi qaytarilishidan kelib tushishi;
- g) tekinga kelib tushish (hadya shartnomasi bo'yicha);
- d) ayirboshlash;
- e) uzoq muddatli aktivlar tarkibidan o'tkazish;
- j) ortiqcha (hisobga olinmagan) tovar-moddiy zaxiralarni aniqlash;
- z) ilgari berilgan tovar qarzining qaytarilishi yoki tovar qarzini olish;
- i) tashkilotning o'zida tayyorlanishi;
- k) hisobot davri oxirida tugallanmagan va tugallanmagan ishlab chiqarish tarzida hisobga olinadigan ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish;
- l) tovar-moddiy zaxiralarga bo'lgan mulk huquqi olinishiga olib keladigan boshqa operatsiyalar va hodisalar.

II BOB. XO'JA OBOD TUMANIDAGI XO'JA OBOD GILMON FERMER XO'JALIGIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI YURITISH ASOSLARI

2.1. Xo'jaobod tumanidagi "Xo'jaobod Gilmon" fermer xo'jaligi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.

Xukumatimiz tomonidan islohatlarni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bozor qonunlari asosida faoliyat ko'rsatishini ta'minlamoqda. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida shakllangan va erkin raqobatga asoslangan xo'jalik yuritishning ustivor yo'nalishi bo'lgan fermer xo'jaliklari ishonchli faoliyat ko'rsatmoqda. Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishdagi salmog'i yildan-yilga oshib bormoqda.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobini shunday tashkil etish kerakki, u tejimli bo'lib, kam mablag' sarflangan holda ichki va tashqi foydalanuvchilarni ko'proq axborotlar bilan ta'minlasin.

"Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birga, ularni chuqur qayta ishlash, qurilish ishlarini amalga oshirish va qishloq aholisiga xizmat ko'rsatish kabi yo'nalishlarda samarali faoliyat ko'rsatmoqda va o'z istiqbolini topmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda bunday fermer xo'jaliklarining soni 18 mingdan ziyodni tashkil etmoqda."⁷

Yuqorida aytib o'tilgan o'zgarishlar va yutuqlarimiz o'z navbatida, buxgalteriya hisobida tub o'zgarishlarni talab qiladi. Buxgalteriya hisobi xalqaro biznes tili sifatida davlat qonunlarining bajarilishini kafolatlashi, tadbirkorlikni rivojlantirishiga, mulkni saqlash va ko'payishiga xizmat qilishi, manfaatdor (investorlar, aktsiyadorlar, banklar, fondlar, mol yuboruvchilar, mol oluvchilar, rasmiy organlar va h.k.) lar tomonidan muhim iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda (kapitalini investitsiya qilish, bozorga chiqish, xodimlarni yollash, soliq siyosati,

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2013-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 2014 yil 18 yanvar.

moliyalash manbalarini qidirib topish, hisoblashishlar va h.k.) zarur bo'ladigan to'liq va ishonarli axborotlarni o'z vaqtida yetkazib berish kerak.

Bitiruv malakaviy ishining ushbu bo'limida Xo'jaobod tumanidagi "Xo'jaobod Gilmon" fermer xo'jaligida buxgalteriya hisobini yuritishning bugungi holati bilan tanishib chiqishni lozim topdik. Xo'jaobod tumanidagi "Xo'jaobod Gilmon" fermer xo'jaligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasi to'g'risida"gi PF-3342 sonli farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 oktyabrdagi "2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 607-sonli qaroriga asosan Xo'jaobod tumanida tashkil etilgan fermer xo'jaliklaridan biridir.

"Fermer xo'jaliklari to'g'risidagi qonun"ga muvofiq "Fermer xo'jaligi o'ziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda tovar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligi a'zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs xuquqlariga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi sube'ktidir".

Fermer xo'jaliklari bugungi kunda qonun yo'li bilan mustaqil xo'jalik yurituvchi sube'kt va yuridik shaxs xuquqiga ega bo'lib, xo'jalik yuritishning yangicha usullarini ishlab-chiqarishga joriy qilishlari xar tomonlama zaruriy xolatga aylandi. Shuning uchun ham fermer xo'jaliklari moliya xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish va yuritish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya xisobi tugrisida"gi qonunning 1-moddasida "Buxgalteriya hisobi va hisobotni tuzish bilan bog'lik bo'lgan munosabatlar ushbu qonun va boshka qonun xujjatlari bilan tartibga solinadi" deyilgan.

Qonunning 15-moddasida esa o'zining yoki o'zgalarning majburiyatlarini ta'minlash uchun garovga berilgan mol-mulk kiymati, shu jumladan, pul mablag'lari fermer xo'jaliklari tomonidan boshka aktivlardan alohida hisobga olinadi. Garovga olingan mol-mulk kiymati, garov sifatida qabul qilib olingan pul

mablag'lari va valyuta boyliklari qiymati alohida balansdan tashkari xisobvaraqalarda aks ettiriladi.

Buxgalteriya hisobining vazifalaridan biri bo'lib moliyaviy, soliq va boshqa hisobotlarni tuzish hisoblanadi. Shuning uchun haqqoniy va talab darajasidagi hisobotlarga ega bo'lish uchun hisob-kitoblardagi mavjud kamchiliklarni tugatib ularni qonun talablari darajasida tashkil etishga erishish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24-martdagi PF- 3226 – son “Qishloq xo'jaligida isloxotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida”gi va 2004-2006 – yillarda “Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasi to'g'risida”gi farmonlarida, Vazirlar Maxkamasi majlisidagi ma'ruzasi va majlis qarorida fermer xo'jaliklarini rivojlantirish ustivor yo'nalishi sifatida belgilangan. Shuningdek, hisob va hisobot tizimini takomillashtirish dolzarb masala ekanligi ta'kidlangan.

Fermer xo'jaligining xo'jalik moliyaviy faoliyatini tashkil etuvchi quyidagi jarayonlar hisob obo'ktlari bo'lib hisoblanadi, masalan:

- asosiy vositalar;
- moddiy qiymatliklar (em, xashak mineral o'g'itlar, inventarlar va hakazo);
- ishlab-chiqarish jarayoni;
- tayyor maxsulotlarni sotish va shunga doir hisob-kitoblar;
- bank, moliya, soliq organlari va boshqalar bilan hisob-kitob muomalalari;

Biz o'rganayotgan “Xo'jaobod gilmon” fermer xo'jaligida ushbu holatlar qay darajada yondashilganligini quyida ko'rib o'tamiz.

Ushbu fermer xo'jaligi Xo'jaobod tumanidagi Xo'jaobod qishloq fuqorolar yig'inida joylashgan bo'lib, asosan dexqonchilik mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanadi.

Fermer xo'jaligi 2006 yil 2 fevraldagi Xo'jaobod tumani xokimligi xuzuridagi tadbirkorlik sub'ektlarining ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyasida №978 reyestr raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Fermer xo'jaligining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ajratilgan yer va suv resurslaridan oqilona va maqsadli foydalanish;

- tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, hamda yerlarni muxofaza qilish;
- mustaqil ravishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, ularni qayta ishlash va sotish, shuningdek xizmatlar ko'rsatish.

Mamlakatimizda iqtisodiy-inqiroz sharoitida inqirozga qarshi keng qamrovli ishlar olib borilishi qishloq xo'jaligini ham qamrab olgan. Fermer xo'jaligiga ajratib berilgan yer maydonlarini qayta ko'rib chiqilishi natijasida ularning balansida bo'lgan ekin maydonlar ko'paydi. YA'ni yer maydonlarini optimallashtirish bo'yicha keng ko'lamli, shu bilan birga, puxta o'ylanagan ishlar amalga oshirildi. Bunda fermer xo'jaliklarining qaysi sohaga ixtisoslashgani va mamlakatimizning turli xududlaridagi aholi zichligi alohida e'tiborga olindi. Ana shu ishlar natijasida fermer xo'jaliklari uchun ajratilgan yer maydonlari bugungi kunda paxtachilik va g'allachilikda 62,0 gektarga yetdi. Bu ko'rsatkich 2013 yilda paxtachilikda 29.8 gektarni, g'allachilikda esa 32,2 gektarni tashkil qilmoqda. Fermer xo'jaligida maxsulot yetishtirish, ekin turlari haqidagi ma'lumotlarni 1-jadvalda ko'rib o'tamiz.

1-jadval

Xo'jaobod Gilmon fermer xo'jaligi ekin maydoni va yalpi xosil o'zgarishi

№	Ekin turi	2012 yil			2013 yil		
		Ekin maydon Ga	Hosil-dorlik ts/ga	YAlpi hosil tsent	Ekin maydon ga	Hosil-dorlik ts/ga	YAlpi hosil tsent
1	Bug'doy	26	35,2	915	28	37	1036
2	Paxta	57	31	1767	55	31,5	1732,5
	Jami ekin maydoni	83	x	x	83	x	x

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xo'jalikning hozirgi kundagi jami ekin maydoni 83 gektarga teng bo'lmoqda. Xo'jalik 2013 yilda 28 gektar maydonga bug'doy ekib xar gektaridan 37 tsentnerdan jami 1036 tsentner yalpi hosil olgan. Bu ko'rsatkich o'tgan 2012 yilga nisbatan ortganligini ko'rishimiz mumkin. YA'ni hosildorlik 2012 yilga nisbatan 1,8 tsentnerga ortgan bo'lsa, yalpi

hosil esa 121 tsentnerga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.

Xo'jalikda paxta yetishtirish bo'yicha xam 2013 yilda 2012 yilga nisbatan ijobiy natijalarga erishilganligini jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

Ko'rinib turibdiki xo'jalikda 2013 yilda qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish ortgangan. Bu esa xo'jalikda puxta amalga oshirilgan agrotexnologik jarayonlarni o'z vaqtida amalga oshirilishi natijasi deb hisoblashimiz mumkin.

Yuqorida aytib o'tganimizdek fermer xo'jaligi mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanib, o'zining hisob raqamiga egadir xamda belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini xam tashkil etgan. Xo'jaobod Gilmon fermer xo'jaligida ham buxgalteriya hisobi O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni, "Buxgalteriya hisobi milliy andozalari", shuningdek boshqa bir qator me'yoriy xujjatlar asosida shakllantiriladi. Xo'jalik belgilangan tartibda Xo'jaobod tuman DSI va tuman statistika bo'limiga 1- FX shakldagi "Fermer xo'jaligi faoliyati to'g'risida" gi hisobotni o'z muddatlarida topshirib kelmoqda.

Quyida biz xo'jalikning o'tgan davrlarda buxgalteriya balansining xolatini o'rganishni maqsad qildik.

Balans-korxona mablag'lari va qoplash manbalarining ma'lum davrdagi holatini ko'rsatadi. Hisob-kitob ishlarini xalqaro an'anaviy talablar bo'yicha yuritishga oz bo'lsada yaqinlashtirilishi hamda 2002 yilda joriy qilingan va korxonalar tuzadigan yangi buxgalteriya balansi bozor iqtisodi sari qo'yilgan dastlabki qadamdir. Zamonaviy ish yuritish shart-sharoitiga mos keluvchi balansda aktiv va passiv tomonlari bo'ladi. Aktiv tomonida korxona mablag'lari, passivida esa xo'jalikning o'ziga tegishli manbalar, kreditga va qarzga olingan boshqa manbalar ko'rsatiladi. Aktiv mablag'larning oshishi, passivdagi manbalar va foyda (daromad)ning ko'payishi bilan bog'liqdir. Balansning barcha bo'lim va bandlarini chuqur o'rganish moliyaviy ahvolni to'liq o'zlashtirishning asosini tashkil qiladi.

2-jadval

“Xo’jaobod Gilmon” fermer xo’jaligining buxgalteriya balansi va uning o’zgarishi. (ming so’mda)

AKTIV	2012 yil	2013 yil
I. Uzoq muddatli aktivlar		
Asosiy vositalar: dastlabki qiymat	75641	75641
Eskirish qiymat	31705	34215
qoldiq qiymat	43936	41426
Kapital qo’yilmalar	22283	32850
1-BO’LIM BO’YICHA JAMI	66219	74276
II. Joriy aktivlar		
Tovar moddiy zaxiralari jami	41044	91962
Ishlab chiqarish zaxiralari		37570
Tugallanmagan ishlab chiqarish	41044	34392
Debitorlar:	13826	8494
-xaridor va buyurtmachilar bilan hisoblashishlar	8321	7755
- mol yetkazib beruvchilarga berilgan bo’naklar	5505	
- boshqa debitorlik qarzlari		739
Pul mablag’lari	402	218
II-BO’LIM BO’YICHA JAMI	55272	100674
Balansning aktivi bo’yicha JAMI	121491	174950
PASSIV		
I. O’zlik mablag’larning manbalari		
Ustav kapitali	10000	10000
Qo’shilgan kapital	24089	24089
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)	4021	1890
I-BO’LIM BO’YICHA JAMI	38110	35979
II. Majburiyatlar		
Uzoq muddatli majburiyatlar jami	11117	41377
shu jumladan uzoq muddatli kreditorlik qarzlari		
-xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo’naklar	11117	8215
Uzoq muddatli bank kreditlari		33162
Joriy majburiyatlar jami	72264	97591
shu jumladan joriy kreditorlik qarzlari	72264	97591
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz	3694	6835
SHo’ba va qaram xo’jalik jamiyatlariga qarz		
Byudjetga tulovlar buyicha qarz	20862	33184
Sug’urtalar bo’yicha qarz	14845	15884
Maqsadli davlat jamg’armalariga to’lovlar bo’yicha qarz	20910	29620
Qisqa muddatli bank kreditlari	11953	12071
Qisqa muddatli qarzlari		
II-BO’LIM BO’YICHA JAMI	83381	138971
Balansning passivi bo’yicha JAMI	121491	174950

Ma'lumotlarda ishlab chiqarishni uzluksiz olib borish uchun zarur bo'lgan va hisobot tuzish davriga qiymat shaklidagi mol-mulki hamda uni qoplashga jalb qilingan manbalari o'z aksini topadi. Bu ko'rsatkichlar mol-mulk hajmi, tarkibi va qiymatini qay darajadaligini ifodalaydi. Shuningdek mol-mulkning moliyalashtirish manbalari, ya'ni o'ziga tegishli manbalar va chetdan qarzga jalb qilingan manbalar holati ham passivda keltirilgan. Balansdagi har bir band va bo'lim korxonalarning moliyaviy holatiga bog'liq, shuning uchun ham uni chuqur o'rganish lozim. Buxgalteriya balansini o'rganish asosida bir qator ko'rsatkichlar haqida xulosalar chiqarish mumkin.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, "Xo'jaobod Gilmon" fermer xo'jaligining mulki yil boshiga nisbatan 53459 ming so'mga yoki 44 foizga ko'paygan. Xo'jalik faoliyati uchun korxona boyligining ko'payganligi ijobiy holdir. Xo'jalik aktivlarining ko'payishi joriy aktivlar hisobiga bo'lgan. Uning jami mulkdagi salmog'i yil boshida 45,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, yil oxirida 57,5 foizga teng bo'lmoqda. Joriy aktivlar salmog'ining ortishiga asosan, ularning qiymatini uzoq muddatli aktivlarning qiymatiga nisbatan tezroq ortishi sabab bo'lmoqda.

Xo'jalikda joriy aktivlarning asosiy qismini tovar moddiy zaxiralari tashkil etmoqda.

Balansning passiv qismida korxona mablag'larining qoplash manbalari ko'rsatiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mablag'larni to'ldirish quyidagilardan iborat:

1. O'zlik mablag'larning manbalari.
2. Majburiyatlar.

Bunda eng muhim o'rinni korxonaning o'ziga qarashli ustav, qo'shilgan va rezerv kapitallar, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushum va fondlar, kelgusi davr sarflari va to'lovlari uchun rezervlar, kelgusi davr daromadlari egallaydi. Ustav kapital xo'jalik ixtiyoridagi doimiy berkitilgan asosiy va aylanma mablag'larning hajmini ko'rsatadi. U turli xo'jalik muomalalari ta'sirida o'zgarib turadi. Bunga foydaning taqsimlanishi hisobiga to'ldirilish, xomiylarning a'zolik badallari, asosiy vositalarning qayta baholanishi va boshqalar

sabab bo'lishi mumkin. Mablag'larning ko'paytirish manbalari tarkibida foyda alohida o'rinni egallaydi. Foyda hajmining ko'payishi eng avvalo Nizom jamg'armasini to'ldirishga va boshqa ehtiyot jamg'armalari yaratilishga olib keladi.

Yuqoridagi xo'jalikning balans ma'lumotlariga ko'ra, jami manbalar yil boshiga nisbatan aktivlar singari bir xil qiymatda ko'paygan. O'zlik mablag'larning manbalari hisobot yil boshiga nisbatan 2131 ming so'mga kamaygan. Yil boshida xo'jalikning o'z mablag'lari manbalari jami passivlarning 31,3 foizini tashkil etgan bo'lsa, yil oxiriga kelib ushbu ko'rsatkich 20,6 foizga teng bo'lmoqda. Bundan xulosa qilish mumkinki, xo'jalikning mulklarining asosiy qismi qarz mablag'lari hisobiga tashkil topgan.

Xo'jalikning o'zlik mablag'lari manbalarining o'zgarishiga uning taqsimlanmagan foydasining kamayishi asosiy sabab bo'lmoqda, chunki xo'jalikda ustav va rezerv kapitallari o'zgarmagan.

Xo'jalikda majburiyatlar o'tgan davr ichida ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa albatta xo'jalik uchun salbiy hisoblanadi. Majburiyatlarning ortishiga uzoq muddatli va joriy majburiyatlarning ortishi sabab bo'lmoqda.

Quyida xo'jalikning 2012-2013 yillardagi moliyaviy natijalarini ko'rib o'tamiz.

Xo'jalikning moliyaviy natijalar bo'yicha ko'rsatkichlari "Moliyaviy natijalar to'g'risida"gi xisobot shaklida umumlashtiriladi.

Moliyaviy natijalarning shakllanishi va ulardan foydalanish tartibi 1999 yil 5 fevralda Vazirlar Maxkamasining 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ish va xizmat)larning tannarxiga qo'shiladigan ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanishi to'g'risida"gi Nizom hamda 2, 3 va 4- Buxgalteriya hisobining milliy standartlarida yoritilgan.

3-jadval**Xo'jaobod Gilmon fermer xo'jaligida moliyaviy natijalari va uning o'zgarishi tahlili. (ming so'mda)**

№	Ko'rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2013 yil 2012 yilga nisbatan farqi: +,-
1	Maxsulot (tovar,ish,xizmat)larni sotishdan sof tushum	146171	174540	+28369
2	Sotilgan maxsulot (tovar,ish,xizmat) larni tannarxi	135097	158837	+23740
3	Maxsulot (tovar,ish,xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari)	11074	15703	+4629
4	Davr xarajatlari. Shu jumladan:	5619	8504	+2885
	-Sotish xarajatlari	5116	6109	+993
	-Ma'muriy xarajatlar			
	-Boshqa operatsion xarajatlar	503	2395	+1892
5	Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)	5455	7199	+1744
6	Moliyaviy faoliyatning xarajatlari	1434	5309	+3875
7	Umumxo'jalik faoliyatning foydasi	4021	1890	-2131
8	Xisobot davrining sof foydasi (zarari)	4021	1890	-2131

Xo'jalikning moliyaviy natijalari ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xo'jalik o'tgan 2012-2013 yillarda faqat mahsulot sotish bo'yicha daromadga ega bo'lmoqda va ijobiy natijarga erishgan. Xo'jalikda 2013 yilda 2012 yilga nisbatan sof foyda 20131 ming so'mga kamaygan. Uning asosiy sabablaridan biri moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarning 2012 yilga nisbatan ortganligi bo'lmoqda. Moliyaviy natijalarni hisobga olish bo'yicha buxgalteriya uzatmalari quyidagi ko'rinishda aks ettirilgan.

1-shakl.

“Xo’jaobod Gilmon” fermer xo’jaligida moliyaviy natijalarini hisobga olishni va operativ schyotlarni yopilishini buxgalteriya uzatmalarida aks ettirilishi. (2013 yil, ming so’mda)

DT	9110	KT	DT	9900	KT	DT	9010	KT
	158837	(2)	158837	174540	(1)	174540		
DT	9410	KT						
	6109	(3)	6109					
DT	9430	KT						
	2395	(4)	2395					
DT	9610	KT						
	5309	(5)	5309					
DT	8710	KT						
	1890	(6)	1890					
Айланма:				174540	Айланма: 174540			

Yuqoridagi buxgalteriya hisobi uzatmalaridan ko’rinib turibdiki, xo’jalikning moliyaviy natijalari 9900-“YAkuniy moliyaviy natijalar” schyotida umumlashtiriladi. Hisobot davri yakunida yuqoridagi schyotlar yopilib, ushbu hisoblarda qoldiq qolmaydi. YA’ni 1-uzatmada 9010-“Tayyor mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlar” schyotining yopilishi aks ettirilib Dt 9010-Kt 9900 uzatmasi berilgan. Ko’rinib turibdiki, daromadlarni hisobga oluvchi schyotning yopilishiga 9900 schyot kreditlansa boshqa daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar debetlanadi.

2.2 Xo'jaobod tumanidagi Xo'jaobod Gilmon fermer xo'jaligida tovar-moddiy zahiralar harakatini xujjatlashtirish

Fermer xo'jaliklarida aylanma mablag'lardan tejamkorlik bilan foydalanish va ular ustidan nazoratni oshirish uchun aylanma mablag'larning boshlang'ich hisobini tashkil etish zarurdir. Buni amalga oshirishda yuz berayotgan xo'jalik muomalasi birlamchi ko'zatish jarayonidan o'tkaziladi. Ko'zatuv jarayonida korxona faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar o'rganiladi.

Ko'plab iqtisodiy adabiyotlarda buxgalteriya hisobini xujjatlariga asoslanib yuritilishi yozilgan, biroq qaysi xo'jalik muomalasi uchun kanday xujjatlar rasmiylashtirilishi keng yoritib berilmagan.

Bizning fikrimizcha xujjat deb, amalga oshiriladigan xo'jalik jarayonini tasdiqlovchi va unga yuridik kuch beruvchi rasmiy kog'ozga aytiladi.

Yuz bergan bir necha muomalalarni xujjatlar yordamida tasdiqlash, ularni tuplash xujjatlashtirishga olib keladi. Xujjatlashtirish yordamida mablag'lar to'liqligini, amalga oshirilgan xo'jalik operasiyalarining ketma-ketligi va qonununiyligi isbotlanadi.

Bir xo'jalik muomalasini boshlashdan to uni oxiriga yetgunigacha bo'lgan jarayonlarni xujjatlarda aks ettirilishi va bu xujjatlarning biri ikkinchisini to'ldirish ketma-ketligiga xujjatlar aylanishi deyiladi. Bunga sotib olingan tovar moddiy zaxiralar va ular bo'yicha mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitob qilish jarayonini xujjatlar yordamida bajarilishi misol bo'la oladi, ya'ni omborga keltirilgan tovar moddiy zaxiralar yuk xati, u uchun to'lov majburiyati hisob-fakturada aks etsa, aynan shu majburiyatni to'langanligini to'lov topshiriknomasi bilan izoxlanadi. Bu xujjatlar o'zaro ketma ketlikda biri ikkinchisini bajarilganligini izoxlash uchun rasmiylashtiriladi. Xujjatlar nafaqat isbotlash tasdiqlashda, ular taqqoslash, solishtirish, tahlil o'tkazishda xam keng qo'llaniladi.

Buxgalteriya hisobida xujjatlar yordamida xo'jalik operasiyalarining boshlanish davri ko'rsatilsa, xujjatlashtirishda operasiyaning bajarilishi va hisobotda esa operasiyaning yakuniy bosqichi o'z ifodasini topadi.

Xujjat- bu, lotincha «dokumentum» so'zidan olingan bo'lib, «guvohlik»,

«isbotlovchi» degan ma'nolarni anglatadi.

Buxgalteriya hisobida aks ettiriladigan har bir xo'jalik operatsiyasi korxona aylanma mablag'lari xolatiga o'z ta'sirini o'tkazib boradi va har bir mablag'ning xolatidagi o'zgarish xujjatlar bilan asoslangandagina qonuniy deb hisoblanadi. Shuning uchun buxgalteriya hisobida aylanma mablag'lar hisobini tashkil qilish bevosita xujjatlarga asoslanadi va buxgalteriya hisobi xujjatlar asosida tashkil qilingani uchun xam boshka hisob turlaridan shu jumladan, operativ va statistika hisobidan tubdan farq qiladi.

Buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlardan biri amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarini yoppasiga aks ettirilishidir. Bu dastlabki hisob axborotlarni manbai bo'lgan xujjatlashtirish asosida amalga oshiriladi. Xujjatlardagi ko'rsatilgan ma'lumotlar buxgalteriya hisobida xo'jalik operatsiyalarini aks ettirish uchun asos yaratadi. Agar amalga oshiriladigan xo'jalik operatsiyasida kamchiliklar aniqlansa yoki rasmiylashtirilgan xujjatlarda xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, bunday xo'jalik operatsiyasini amalga oshirish to'xtatiladi. Shuning uchun rasmiylashtirilgan xujjatni to'g'riligini tasdiqlash maksadida korxona raxbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolanadi.

Demak, buxgalteriya xujjati xo'jalik operatsiyasi to'g'ri va haqiqatda amalga oshirganligini tasdiqlovchi yozma guvohnomadir.

Xujjatlar yordamida har bir xo'jalik muomalasining qonuniyligini, buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish imkoniyatlarini yaratiladi. Har bir buxgalteriya hisob schyotlarida aks ettiriladigan xo'jalik muomalasi xujjatlar bilan asoslangan bo'lishi kerak, shundagina mablag'lar harakatini to'g'ri hisob- kitob qilish imkoniyatini yaratiladi. Demak, buxgalteriya hisobining yuritish asosi bo'lib xujjatlar hisoblanadi. Agar xujjatlar bilan rasmiylashtirmagan xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobida aks ettirilsa, bu noqonuniy deb hisoblanadi. Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi qonunning belgilanib qo'yilgan 9-moddasida: «Xo'jalik operatsiyalarining buxgalteriya hisobi uchun operatsiyalar amalga oshirilganligini qayd etuvchi boshlang'ich hisob xujjatlari va ularni o'tkazishga doir farmoyishlar asos bo'ladi»

deb ko'rsatilgan.

Boshlang'ich hisob xujjatlarini majburiy rekvizitlari quyidagilar:

- Korxonaning (muassasaning) nomi;
- Xujjat nomi va raqami, tuzilgan sana va joyi;
- Xo'jalik muomalasining nomi, mazmuni va miqdori, o'lchovi natura ko'rinishida va pulda ifodalangan xolda;
- Ma'sul shaxslarning shaxsiy imzolari;

«Boshlang'ich hisob xujjatlarini to'zgan xamda imzolagan shaxslar ularni o'z vaktida to'g'ri va aniq tuzilishi, Shuningdek buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun ularni belgilangan muddatlarda topshirilishida javobgardirlar».

«Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi Qonunga asosan har bir buxgalteriya hisobi xujjatlari tegishli schyotlarda o'z ifodasini topish kerak. Xujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilgandagina, ya'ni uni oldiga qo'yilgan talablarga to'liq rioya qilgandagina xuquqiy jixatdan tan olinadi.

To'g'ri rasmiylashtirilgan xujjatlar yordamida korxona va tashkilotlarga taluqli bo'lgan mablag'lar harakatini xolati aniqlanadi.

Xujjatlar asosida rasmiylashtirilgan xo'jalik muomlari yordamida korxona raxbari, mulk egasi o'ziga taaluqli bo'lgan mablag'larni joylanishi va tashkil topish, ustidan to'liq nazorat qilish imkoniga ega bo'ladi.

Korxonalarda materiallar harakatining boshlang'ich hisobi ishonchnoma, yuk xati, hisob-faktura va dalolatnomalarni rasmiylashtirish orqali tashkil etiladi.

Xo'jalik jarayonlarini va ularning natijalarini nazorat qilish kuzatish, o'lchash va ro'yxatga olish orqali amalga oshiriladi. Kuzatish orqali korxonalarning xo'jalik faoliyatini tashkil etuvchi ko'p sonli va turli xil faktlar olinadi. Bu faktlarni esa ma'lum o'lchov birliklarida ifodalash xamda tegishli ravishda guruxlarga ajratib qayd qilib borish zarur. SHu tariqa xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyatiga baho berish uchun zarur ma'lumotlarga ega bo'linadi. Bunda xujjat va xujjatlashtirishning o'rni beqiyos darajada kattadir.

Qishloq xo'jalik korxonalarida materiallarning harakati tegishli dastlabki hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi. Bu esa ularning saqlanishini ta'minlash,

tejamkorlik rejimiga qat'iy rioya qilish va moddiy xarajatlarni kamaytirishning ichki imkoniyatlarini topishda muhim ahamiyatga ega.

Daladagi hosildan olingan dag'al (pichan, somon va boshqalar) va shirali (ildizmevalilar, silos, senaj va boshqalar) oзуqalar dag'al va shirali oзуqalarni qabul qilish dalolatnomasi (92-shakl)ga asosan hisobga olinadi. Ushbu dalolatnoma korxona rahbari tasdiqlagan maxsus komissiya tomonidan ikki nusxada tuziladi. Uning birinchi nusxasi xo'jalik buxgalteriyasiga, ikkinchi nusxasi oзуqalarning joylashish sxemasi bilan birgalikda oзуqa bilan ta'minlovchi mas'ul shaxsga beriladi.

Silos va senaj ham shu dalolatnomaga asosan qabul qilinadi.

Temir yo'l yoki suv transporti orqali keltirilgan omuxta em va boshqa oзуqalar temir yo'l Nizomiga va ichki suv transporti Nizomi qoidalariga muvofiq kam chiqqan va buzilgan mahsulotga tijorat dalolatnomasi tuzish yo'li bilan rasmiylashtiriladi.

Oзуqalarni temir yo'l stansiyalaridan (pristanlardan) qishloq xo'jalik korxonalari omborlariga tashib keltirish tovar-transport nakladnoylari bilan rasmiylashtiriladi.

Qishloq xo'jalik korxonalari materiallar, yoqilg'ilar va boshqa ishlab chiqarish zahiralari bilan neft ta'minoti, agrosanoat ta'minoti, agrokimyota'minot tashkilotlari va boshqa mol yetkazib beruvchilar orqali ta'minlanadi.

Temir yo'l yoki suv transporti orqali keltirilgan yuklarni ekspeditor qishloq xo'jalik korxonasidan berilgan ishonchnoma (2a-namunaviy shakl) bo'yicha qabul qilib oladi.

YUklarni olish va joylarga tashib keltirishni ekspeditor isbotlovchi kirim va chiqim hujjatlarini ilova qilib, hisobot bilan rasmiylashtiradi. YUkni mol yetkazib beruvchining o'zi bevosita qishloq xo'jalik korxonasi omboriga yetkazib berganida ekspeditor funksiyasini ombor mudiri bajaradi.

Moddiy boyliklar tegishli dastlabki o'lchov birliklarida (massasi, hajmi, schyoti va boshqalar bo'yicha) qabul qilinadi. Agar moddiy boyliklar bir o'lchov birligida (og'irlik bo'yicha) qabul qilinib, boshqasi bo'yicha (schyot, hajm

bo'yicha) sarflansa, ularning kirimi, saqlanishi va sarflanishi dastlabki hujjatlar va analitik hisob registrlarida bir vaqtning o'zida ikki xil o'lchov birligida aks ettiriladi (agar shunga maxsus ko'rsatma bo'lmasa).

Mol yetkazib beruvchilardan sotib olingan moddiy boyliklar, qoidaga ko'ra haqiqatda qabul qilingan miqdori bo'yicha nakladnoylar (ichki xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan) bilan rasmiylashtiriladi. Moddiy boyliklar avtotransportda tashib keltirilganida yuk jo'natuvchining tovar-transport nakladnoyiga muvofiq qabul qilinadi.

Moddiy boyliklarning haqiqatda qabul qilingan miqdori bilan mol yetkazib beruvchining hujjatida ko'rsatilgan miqdori o'rtasida tafovut bo'lmaganda, ombor mudiri ularni qabul qilish uchun rekvizitlari nakladnoydagi rekvizitlar bilan bir xil bo'lgan to'rtburchak muhr bosadi yoki imzosi bilan tasdiqlaydi.

Agar xo'jalikka olib kelingan moddiy boyliklarni qabul qilishda, ularni xilma-xilligi, sifati va miqdori mol yetkazib beruvchi hujjatiga to'g'ri kelmasa yoki hujjatsiz olingan bo'lsa, materiallarni qabul qilish dalolatnomasi (7-M namunaviy idoralararo shakl) tuziladi.

Neft sotuvchi tashkilotlaridan xo'jalikning neft omborlariga avtosisternalarda va bochkalarda olingan neft mahsulotlari neft ombori mudiri tomonidan tovar-transport nakladnoyi va neft mahsulotlariga mos keladigan, ularning sifati, zichligi, markasi va GOSTi (Davlat standarti) ko'rsatilgan neft mahsulotlarining sifat pasporti asosida qabul qilinadi. Temir yo'l sisternalarida va quyiladigan kemalarda olib kelinadigan neft mahsulotlarini komissiya ilova tovar-transport hujjatlari (nakladnoylar, pasportlar) asosida qabul qiladi.

Agar neft mahsulotlarini qabul qilishda ularning etishmasligi aniqlansa, u holda e'tiroznoma yoki tijorat dalolatnomasi tuziladi. Neft mahsulotlari olish talonlar, nakladnoylar va schyotlar bo'yicha qabul qilinadi.

Xo'jalikka olinadigan dori-darmonlar va bog'lash materiallari, dezinfeksiyalovchi vositalar, antibiotiklar va biogen stimulyatorlar, vitaminlar va veterinariyada ishlatiladigan mineral moddalar nakladnoylar, schyotlar va boshqa hujjatlar asosida vetaptekalarda yoki vetuchastkalarda qabul qilinadi.

Ishlab chiqarish zahiralarini berish va sarflash nakladnoylar, limit-zabor kartalari, dalolatnoma va boshqa hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi.

Ozuqalarni daladan chorva mollarining qishlash joylariga jo'natish, ozuqani beruvchi moddiy javobgar shaxs tomonidan yozilgan nakladnoy yoki yo'llanma bilan rasmiylashtiriladi.

Ekilgan urug'liklar har bir ekin uchun alohida tuziladigan urug'lik va ko'chatlarni sarflash dalolatnomasi (119-shakl) bilan hisobdan chiqariladi.

Chorvachilik tarmog'ining samaradorligini oshirish uchun ozuqalar sarfi ustidan doimiy nazorat o'rnatish lozim. Buning uchun zootexniklar va ferma mudirlari chorva mollarini oziqlantirish rejasini tuzadi va xo'jalik rahbari tasdiqlaydi hamda fermada ozuqalarni berish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Chorvachilikda sarflanadigan dag'al, shirali, omuxta em va ko'k bo'tqa yem-xashak sarfi vedomosti (94-shakl) bo'yicha beriladi. Cho'chqachilik komplekslarida ozuqa sarfi chorva mollari va em-xashak xarakatini xisobga olish varaqasi (97a-shakl) bilan rasmiylashtiriladi.

Mahsulot va materiallarni ombordan berish ichki xo'jalik nakladnoylari (87-shakl), limit-zabor kartalari (117 va 117a-shakllar) va boshqa dastlabki hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi.

Nakladnoy moddiy boyliklar omborxonadan bir marta berilganda to'lg'aziladi. Agar omborxonadan moddiy boyliklar muntazam berilsa, limit-zabor kartalaridan foydalaniladi. Limit-zabor kartalari bir kalendar oy uchun ikki nusxada yoziladi. U jamlama hujjat hisoblanadi va materiallar hisobini «Ruxsat etiladi» degan birinchi bo'limida qanday mahsulot va materiallar qancha miqdorda berilishi mumkinligi va uning amal qilish muddati ko'rsatiladi. Bu bo'limni korxona rahbari va buxgalter imzolaydi. Ikkinchi bo'limida moddiy boyliklarning berilishi qayd qilinadi, limit tugagandan so'ng moddiy boyliklarni berish to'xtatiladi. Zaruriyat tug'ilgan hollarda rahbar tomonidan qo'shimcha limitga ruxsat berilishi mumkin.

Limit-zabor kartaning bir nusxasi oluvchida, ikkinchi nusxasi esa omborchida bo'ladi. Moddiy boyliklar berilayotganda omborchi har ikkala

nusxaga sana va berilgan narsalar miqdorini yozadi. Bunda omborchidagi limit-zabor kartasiga oluvchi, oluvchidagiga esa omborchi imzo qo'yadi. Texnikalarni joriy va kapital ta'mirlash uchun sarflangan ehtiyot qismlar mashinalarni tuzatish defekt (nuqson)lar vedomostiga (180-shakl) asosan hisobdan chiqariladi.

Yerga solingan mineral, mahalliy va bakteriologik o'g'itlar hamda sarflangan zaharli ximikatlar mineral o'g'itlar, zaxarli ximikatlar va gerbisidlardan foydalanish to'g'risidagi dalolatnoma (118-shakl) asosida hisobdan chiqariladi.

Kapital qurilishga sarflangan qurilish materiallari ishlab chiqarish me'yorlari bilan taqqoslab asosiy materiallarni qurilishga sarflash to'g'risidagi hisobot (M-29 namunaviy shakl) bo'yicha hisobdan chiqariladi. Mazkur hisobotga «Asosiy materiallarni ishlab chiqarish me'yorlariga qaraganda oshiqcha sarflanish sabablari to'g'risida tushuntirish xati» ilova qilinadi.

Agar urug'lik, ozuqa, o'g'itlar, neft mahsulotlari hamda qurilish materiallari va boshqa materiallar ishlab chiqarishga limitdan oshiqcha sarflansa, u holda alohida nakladnoy (87-shakl) bilan ramiylashtiriladi.

Maxsus hujjatlarsiz hisobdan chiqariladigan xom-ashyo va materiallarning qolgan turlarini ishlab chiqarishga sarflash ishlab chiqarishda materiallardan foydalanish to'g'risidagi dalolatnoma yoki hisobot bilan rasmiylashtiriladi. Bu hujjatlarda ishning nomi, hajmi va sarflangan materiallarning nomlari va nomenklatura raqamlari ko'rsatiladi.

Omborlarga qabul qilingan va ombordan berilgan tovar-moddiy zahiralarni ombor mudirlari tomonidan materiallarni omborxonada xisobga olish kartochkalari (M-17 namunaviy shakl) yoki omborxona xisobi daftarida (40-shakl) hisobga olinadi. Tovar-moddiy zahiralar omborlarda va boshqa saqlash joylarida faqat miqdor ko'rsatkichida hisobga olinadi.

Omborxona hisobi kartochkalari tovar-moddiy boyliklarning har bir navi, turi, o'lchami va boshqa sifat belgilari bo'yicha yuritiladi.

Tovar-moddiy zahiralarning hisobini olib boradigan buxgalter vaqti-vaqti bilan omborxonaga kelib omborxona mudirining ishtirokida uning yozuvlari va omborxona hisobi kartochkalarida chiqargan qoldiqlarini tekshirib, yozuvlar va

chiqarilgan qoldiqlar to'g'riligini o'z imzosi va sana qo'yib tasdiqlaydi.

Agar omborxonalarda tovar-moddiy zahiralari hisobi omborxona hisobi daftarida yuritilsa, ombor mudiri buxgalteriyadan oldindan tayyorlab qo'yilgan daftarlarni oladi. Ularda moddiy boyliklarning har bir turi va navi uchun ma'lum betlar ajratiladi. YOzuvarlar dastlabki hujjatlarga asosan, materiallar hisobi kartochkalarida qanday tartibda yuritilsa, omborxona hisobi daftarida ham shunday yuritiladi.

Ombor mudirlari tomonidan har oyda har bir kartochka yoki omborxona hisobi daftaridagi har bir schyot bo'yicha kirim va chiqim oborotlari jamlanib, moddiy qiymatliklar xarakati to'g'risida xisobot (121-shakl) ikki nusxada tuziladi. Ushbu hisobotlarga faqat mazkur oyda harakat (kirim-chiqim) sodir bo'lgan tovar-moddiy zahiralargina kiritiladi. Tuzilgan hisobotlar hujjatlar aylanishining reja-grafigida belgilangan muddatlarda xo'jalik buxgalteriyasiga topshiriladi. Buxgalter hisobotlar va isbotlovchi hujjatlarni tekshiradi hamda qabul qilganligi to'g'risida hisobotning ikkinchi nusxasini imzolaydi va omborchiga qaytib beradi.

So'ngra buxgalter hisobotlarni taksirovka qiladi va tovar-moddiy qiymatliklarning har bir turi bo'yicha pul ifodasidagi jamini hisoblaydi (kirim va chiqim bo'yicha). Moddiy qiymatliklar harakati to'g'risidagi hisobotlar xo'jalik tarkibiy bo'linmalari (bo'limlar, sexlar, bosh pudratchilar, fermalar, ijara jamoalari) bo'yicha shaxsiy hisob varaqalari(ishlab chiqarish hisobotlari)ni tuzishda foydalaniladi.

Hisobot ma'lumotlarini tahliliy jihatdan qayta ishlash usullaridan biri tahliliy jadvallarni to'zish hisoblanadi. Jadvalga tahlil qilinadigan ko'rsatkichlarning baza va amaldagi darajasi kiritiladi, mutlaq farq aniqlanadi, ko'rsatkichlarning o'sish sur'ati aniqlanadi hamda tegishli xulosa yoziladi. Tahliliy jadvallarning ustunligi va afzalligi shundan iboratki, u ham bo'lsa, ko'rsatkichlarning o'zaro bog'lanishi juda ham aniq va ko'rgazmali tarzda namoyon bo'ladi.

Tahlilning so'nggi bosqichi uning natijalarini rasmiylashtirish hisoblanadi. Tahlil natijalariga asoslangan holda ma'lumotnoma yoki izohnoma yoziladi. Izohnomada

korxona va tashkilotlarning xo'jalik faoliyatida qo'lga kiritilgan yutuqlari va yo'l qo'ygan kamchiliklarini bartaraf qilish yo'llari ko'rsatiladi. Bu o'rinda ayniqsa, aniqlangan ichki xo'jalik rezervlarni ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jalb etish yo'llari ko'rsatiladi. Izohnoma juda ham qisqa va mazmunli bayon etilishi lozim.

2.3. Xo'jaobod tumanidagi Xo'jaobod Gilmon fermer xo'jaligida tovar-moddiy zahiralari sintetik va analitik hisobi

Har bir mulk egasining asosiy maqsadi o'z faoliyatini foydali bo'lishini ta'minlashdir. Buning uchun mulkdor amalga oshirilgan operatsiyalarini to'g'riligini ta'minlash bilan birga sarf-xarajatlarini kamaytirishga erishish zarur. Ayniqsa, har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt o'z mulkini to'liqligini ta'minlash chora tadbirlarini ishlab chiqish bilan birga ulardan oqilona, unumli hamda tejamkorlik bilan foydalanish katta ahamiyatga ega. Buning uchun esa birinchi navbatda nazoratni, moddiy javobgarlikni to'g'ri tashkil qilish kerak bo'ladi. Bu albatta korxonaning moliyaviy xolatini yaxshilanishiga hamda uning rivojlanishiga imkoniyatlar yaratadi. Bu borada yurtboshimiz o'zining «Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» asarida inqirozga qarshi choralar ko'rishda asosiy vazifalar qatorida «... qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatdoshligini oshirish.»⁸ vazifasini qo'yishi ham bejiz emas edi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahsulot sifatini saqlagan xolda xarajatlarni kamaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, hozirgi sharoitda mahsulotni bahosi talab va taklifdan kelib chiqqan xolda belgilanishi, xar bir xo'jalik yurituvchi sub'ektni mavjud iqtisodiy resurslaridan samarali foydalanishni taqazo qiladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektda iqtisodiy resurslar pul mablag'lari, xom-ashyo, tovarlar, tayyor mahsulotlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Korxona rahbarlari mavjud resursdan samarali foydalanishga erishgandagina, korxona moliyaviy barqarorlikka erishadi.

Ma'lumki, "...xarajatlar tarkibi to'g'risidagi" nizomga hamda soliq kodeksiga asosan mahsulot tannarxiga asosiy material xarajatlari, asosiy mehnat xarajatlari hamda ishlab chiqarish bilan bog'liq ustama xarajatlar kiritilishi belgilab berilgan. Korxonalarda ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni asosiy qismini xom ashyo

⁸ Karimov I.A. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009, 17-b.

va materiallar tashkil etadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mahsulot tannarxini kamaytirish uchun yuqorida sanab o'tilgan xarajatlar hisobini to'g'ri tashkil etishi va ular ustidan samarali nazorat tizimini o'rnatish talab etiladi.

Tovar-moddiy zaxiralari hisobini tashkil qilishda ularning tarkibi, xolati, xarakati, miqdori, xarid qilinishi, qayta baholash tartibi va hokazolarga e'tibor qaratish lozim. Hisob ma'lumotlari mahsulot tannarxini pasaytirish imkoniyatlarini qidirib topish, moddiy qiymatliklardan tejamli foydalanish, xarajat me'yorlarini kamaytirish, ularni tegishli xolatda saqlash va ularning butligini ta'minlash to'g'risidagi axborotlardan iborat bo'lishi lozim.

21-son BHMSga muvofiq "Tovar moddiy zaxiralar" hisobini yuritilishi quyidagi schyotlarda yuritiladi:

- 1000 - Materiallarni hisobga oluvchi schyotlar;
- 1100 - O'stirishdagi va boquvdagi xayvonlarni hisobga oluvchi schyotlar;
- 1500 - Materiallarni tayyorlash va xarid qilishni hisobga oluvchi schyotlar;
- 1600 - Materiallar qiymatidagi farqlarni hisobga oluvchi schyotlar;
- 2000 - Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar;
- 2100 - O'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlar;
- 2300 - YOrdamchi ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar;
- 2500 - Umumishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar;
- 2600 - Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlar;
- 2700 - Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarni hisobga oluvchi schyotlar;
- 2800 - Tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlar;
- 2900 - Tovarlarini hisobga oluvchi schyotlar.

Aktivlarni tovar-moddiy zaxiralarga kiritish tartibi va ularni hisobga olishning asosiy qoidalari O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2006 yil 15 iyundagi 52-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Buxgalteriya hisobining milliy standarti (4-BHMS) "Tovar-moddiy zaxiralar" (2006 yil 17 iyulda 1595-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) ("O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2006 yil, 28-29-son, 282-modda) bilan tartibga solinadi.

Xo'jaobod Gilmon fermer xo'jaligi yuqorida aytib o'tganimizdek, asosan dexqonchilikka ixtisoslashgan xo'jalik bo'lganligi uchun unda tovar moddiy zaxirlarni hisobga olish uchun quyidagi schyotlardan foydalanib kelmoqda:

1000 - Materiallarni hisobga oluvchi schyotlar;

2000 - Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar;

2800 - Tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlar;

“Xo'jaobod Gilmon” fermer xo'jaligi materiallar xolati va harakatini nazorat qilishni kuchaytirish maqsadida 1000- “Materiallar” sintetik schyotida quyidagi analitik schyotlar ochilgan:

1010- “Xom ashyo va materiallar”

1020-“Sotib olintan yarim fabrikatlar, butlash (komplektlash) buyumlari”

1030- “YOqilg'i”

1040-“Extiyot qismlar”

1050-“Qurilish materiallari”

1060-“Idishlar va idish materiallar”

1070-“CHetga qayta ishlashga berilgan materiallar”

1080-“Inventar va xo'jalik buyumlari”

1090-“Boshqa materiallar”

Xo'jalikda 1510-“Materiallarni sotib olish”, 1610-“Materiallar qiymatidagi farq” hisobvaraqlaridan foydalanmaydi.

Xo'jalikda mahsulot yetishtirish uchun ma'lum turdagi material xarajatlari sarflangan. Ushbu materiallar mol yetkazib beruvchilardan sotib olinadi. Materiallarni sotib olish bog'liq xo'jalik muomalalarini fermer xo'jaligi misolida ko'rib o'tamiz.

Xo'jalik yuqorida ko'rib o'tganimizdek (1-jadvalda) 2013 yil paxta hosili uchun 55 gektarga paxta va 28 gektar maydonga bug'doy ekkan. Ushbu ekin turlarini ekish uchun xo'jalik jami 7825 ming so'mlik urug'lik, 24685 ming so'mlik mineral o'g'it va 29500 ming so'mlik yoqilg'i moylash materiallari sarflagan. Ushbu sarflangan materiallarning barchasi mol yetkazib beruvchilardan sotib olingan.

Xo'jalik urug'lik sotib olganda quyidagi tartibda buxgalteriya uzatmasi amalga oshirilgan.

Fermer xo'jaliklariga materiallar asosan mol yetkazib beruvchilar tomonidan keltiriladi. Shuningdek, ayrim materiallar hisobdor shaxslar orqali ham keltirilishi mumkin. Xo'jaobod Gilmon fermer xo'jaligiga yoqilg'i moylash materiallari "Gurunch-Mozor neft baza" unitar korxonasi tomonidan yetkazib beriladi. Ushbu korxona bilan fermer xo'jaligi o'rtasida 2012 yil 9 dekabrda 2013 yilda neft mahsulotlarini yetkazib berish to'g'risida 60-sonli shartnoma imzolangan. SHartnomaga muvofiq "Gurunch-Mozor neft baza" unitar korxonasi xo'jalikka avtobenzin, dizel yonilg'isi va boshqa mahsulotlarni yetkazib berish, xo'jalik esa ularni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Shuningdek, shartnomada taraflarning xuquq va majburiyatlari, shartnomaning bajarilishi, taraflarning javobgarligi, nizolarni xal etish tartibi yakuniy qoidalar aks ettiriladi.

Mol yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomaga asosan xo'jalikka yoqilg'i moylash materiallari qabul qilinganda, ularning summasi sintetik hisobvaraqlarda quyidagi tartibda aks ettiriladi:

Debet- 1030 "YOqilg'i" hisobvarag'i.

Kredit- 6010 "Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan hisobvaraqlar" hisobvarag'i.

2-shakl.

Sotib olingan yoqilg'i moylash materillarini kiringa olishni buxgalteriya uzatmasida aks ettirilishi. (ming so'mda)

DT	6010	KT	DT	1030	KT
	29500		29500		

Bundan tashqari xo'jalik mol yetkazib beruvchilardan mineral o'g'itlarni sotib

olgan. Ushbu muomala bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini quyidagi tartibdagi buxgalteriya uzatmalarida aks ettirilgan.

3-shakl.

Sotib olingan mineral o'g'itni kiringa olishni buxgalteriya uzatmasida aks ettirilishi. (ming so'mda)

DT	6010	KT	DT	1091	KT
	24685		24685		

Yuqoridagi uzatmadan ko'rinib turibdiki mineral o'g'it sotib olinganda 6010-Mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashuvlar schyoti kreditlanib, 1091-Boshqa materiallarni hisobga oluvchi schyot ya'ni, mineral o'g'itni hisobga oluvchi schyot debetlangan.

4-shakl.

Sotib olingan urug'lik materialini buxgalteriya uzatmasida aks ettirilishi. (ming so'mda)

DT	6010	KT	DT	1090	KT
	7825		7825		

Yuqoridagi uzatmadan ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaligida urug'likni hisobga olish uchun 1090-Boshqa materiallarni hisobga oluvchi schyot ochilgan bo'lib, urug'lik materiallari sotib olinganda 6010-Mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisoblashuvlar schyoti kreditlanib, 1090-Boshqa materiallarni hisobga oluvchi schyot ya'ni, urug'likni hisobga oluvchi schyot debetlangan.

Materiallar bevosita mahsulot yetishtirish jarayonida ularning tannarxiga

kiritiladi. Shuning uchun ular yetishtirilayotgan mahsulotlar tannarxining asosini tashkil etadi. SHu maqsadda xo'jalikda yetishtirilayotgan mahsulotlarning tannarxini va uning o'zgarishini tahlil qilib chiqamiz.

Xo'jalik o'z faoliyatini uch turdagi jarayonda olib boradi. YA'ni ta'minot, ishlab chiqarish va sotish jarayonlari xo'jalik faoliyatning asosini tashkil etadi. Xo'jaobod Gilmon fermer xo'jaligida ishlab chiqarish jarayoni asosan ikki turdagi mahsulot yetishtirishdan, ya'ni paxta va bug'doy yetishtirishdan iboratdir.

Xarajatlarni hisobga olish va ularni turkumlanishi "Xarajatlar tarkibi to'g'risida" gi Nizomga asosan amalga oshiriladi. Biroq, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi xarajatlar o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan yo'riqnomaga ko'ra, quyidagi xarajat moddalari bo'yicha tashkil etilishi lozim:

1. Asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilarning asosiy va qo'shimcha ish haqi;
2. Ish xaqiga nisbatan ijtimoiy sug'urta ajratmalari;
3. Urug' va ko'chat materiallari;
4. Mineral va organik o'g'itlar;
5. Ish va xizmatlar;
6. Sug'urta to'lovlari;
7. Asosiy vositalarni saqlash va ishlatish xarajatlari;
8. Boshqa xarajatlar;
9. O'simlikchilikning umum ishlab chiqarish xarajatlari.

Xarajatlar – o'z ta'rifiga ko'ra, kelajakda foyda olish maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan qonuniy faoliyatning u yoki bu sohasiga o'z aktivlarining safarbar qilinishi hisoblanadi. SHu nuqtai nazardan biz quyida Xo'jaobod Gilmon fermer xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarga sarflanayotgan xarajatlarni o'zgarishini quyidagi jadval ma'lumotlari yordamida tahlil qilib o'tamiz.

Xo'jalikning asosiy faoliyat turi hisoblangan mahsulotlar, asosiy ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotida amalga oshiriladi.

2010 “Asosiy ishlab chiqarish” schyotining debeti bo’yicha mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko’rsatish bilan bevosita bog’liq bo’lgan to’g’ri xarajatlar shuningdek, yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, asosiy ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko’rsatish bilan bog’liq bo’lgan egri xarajatlar va yaroqsiz mahsulot hisobiga yo’qotishlar aks ettiriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog’liq bo’lgan to’g’ri xarajatlar 2010 “Asosiy ishlab chiqarish” schyotiga ishlab chiqarish zaxiralari, mehnatga haq to’lash bo’yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar va boshqalarni hisobga oluvchi schyotlarning kreditidan hisobdan chiqariladi.

2010 “Asosiy ishlab chiqarish” schyotining kreditida tugallangan mahsulot ishlab chiqarishning haqiqiy tannarx summalar aks ettiriladi. Ushbu summalar 2010 “Asosiy ishlab chiqarish” schyotidan 2810 “Ombordagi tayyor mahsulotlar”, 9110 “Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi”, 9130 “Bajarilgan ish va ko’rsatilgan xizmatlarning tannarxi” schyotlarining debetiga hisobdan chiqarilishi mumkin.

2010 “Asosiy ishlab chiqarish” schyoti bo’yicha oy oxiridagi qoldiq tugallanmagan ishlab chiqarishning tannarxini ko’rsatadi.

Analitik hisob xarajatlarning turlari va chiqarilayotgan mahsulotlarning turlari bo’yicha yuritiladi. Xarajatlarning yuzaga kelish joylari va boshqa belgilari bo’yicha guruhlanishi shuningdek, kalkulyatsion hisob alohida schyotlar tizimida amalga oshiriladi.

4-jadval

“Xo’jaobod Gilmon” fermer xo’jaligida asosiy ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi. (2013 yil, ming so’mda)

	Mazmuni	Bug’doy		Paxta	
		Ming so’m	%	Ming so’m	%
1.	Ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari	19318	65,4	57284	42,5
	a) urug’lik	1256	4,2	6569	4,9
	b) o’g’it	7430	25,2	17255	12,8
	v) yoqig’i moylash materiallari	8950	30,3	20500	15,2
	g) ish va xizmatlar	1682	5,7	12960	9,6
2.	Ish xaqi	5431	18,4	20186	15,0
3.	Sug’urta to’lovlari	1357	4,6	4979	3,7
4.	Asosiy vositalar amortizatsiyasi	410	1,4	2100	1,6
5.	Boshqa xarajatlar	3000	10,2	50026	37,2
	Jami	29516	100	134575	100

Jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, xo’jalikda 2013 yilda jami paxta va bug’doy yetishtirish uchun 164091 ming so’mlik xarajat sarflangan bo’lib, shundan paxta yetishtirish uchun 134575 ming so’m, bug’doy yetishtirish uchun esa 29516 ming so’mlik xarajatlar sarflangan. Xarajatlar tarkibidan ko’rinib turibdiki, uning tarkibida moddiy xarajatlar asosiy salmoqni egallab turibdi. Moddiy xarajatlar asosan urug’lik, o’g’it, yoqilg’i moylash materiallari, ish va xizmatlardan iborat bo’lmoqda. Xarajatlarning buxgalteriya uzatmalarida aks ettirilishini quyidagi uzatmalarda ko’rib o’tamiz.

5-shakl
“Xo’jaobod Gilmon” fermer xo’jaligida paxta yetishtirish xarajatlarini
buxgalteriya uzatmalarida aks ettirilishi. (2013 yil, ming so’mda)

	6569	(1a)	6569	(6)	134575	134575
DT	1092	KT				
	17255	(16)	17255			
DT	1030	KT				
	20500	(1B)	20500			
DT	6010	KT				
	12960	(1r)	12960			
DT	6710	KT				
	20186	(2)	20186			
DT	6510	KT				
	4979	(3)	4979			
DT	0210	KT				
	2100	(4)	2100			
DT	BX	KT				
	50026	(5)	50026			
	Ayl: 134575			Ayl: 134575		

“Xo’jaobod Gilmon” fermer xo’jaligida bug’doy yetishtirish xarajatlarini
buxgalteriya uzatmalarida aks ettirilishi. (2013 yil, ming so’mda)

DT	1091	KT	DT	2011	KT	DT	2810	KT
		(1a)			(5)			
		1256	1256		8035	8035		
DT	1092	KT						
		7430	(16)	7430				
DT	1030	KT						
		8950	(1B)	8950				
DT	6010	KT						
		1682	(1r)	1682				
DT	6710	KT						
		5431	(2)	5431				
DT	6510	KT						
		1357	(3)	1357				
DT	0210	KT						
		410	(4)	410				
DT	BX	KT						
		3000	(5)	3000				
Ayl: 29516				- 55	Ayl: 29516			

Yuqoridagi uzatmalardan ko'rinib turibdiki asosiy ishlab chiqarish xarajatlari 2010- "Asosiy ishlab chiqarish" hisobvarag'ida hisobga olib kelinmoqda. Bu hisob balansga nisbatan aktiv hisoblanib, uning debetida mahsulot yetishtirish uchun sarflangan xarajatlar hisobga olinsa, kreditida maxsulotlarning reja va xaqiqiy bahosida chiqishi aks ettiriladi. Buxgalteriya uzatmalaridan ko'rinib turibdiki, asosiy ishlab chiqarish xarajatlari hisobga olinganda 2010-Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari hisobi debetlangan bo'lsa, tegishli schyotlar kreditlangan. Masalan, dexqonchilikka sarflangan urug'lik xarajatlariga DT 2010 – KT 1090 uzatmasi berilgan bo'lsa, qolgan barcha uzatmalarda xam 2010 – Asosiy ishlab chiqarish schyoti debetlanib, 1091, 1030, 6010, 6710, 6510, 2510 va boshqa xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar kreditlangan. Yil yakunida dexqonchilik mahsulotlari xaqiqiy tannarxi aniqlanib reja tannarxga tenglashtiriladi. Tayyor mahsulotlar hisobga olinganda 2810 – Tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlar debetlanib 2010 – Asosiy ishlab chiqarish schyoti kreditlangan.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish sharoitida har qanday xo'jalik asosiy maqsadiga erishish uchun ishlab chiqarish xarajatlarini jumladan materiallardan tejab-tergab foydalanishga alohida e'tibor beradilar. CHunki, shuning natijasida ular o'z foydalarini ko'paytirishga, oqibat natijada foydalilik darajasini oshirishga erishadilar. Mahsulot ishlab chiqarishda materiallarning ahamiyati ulkan. Ularsiz ayrim hollarda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati cheklanadi ayrim hollarda esa umuman mumkin emas.

III BOB. TOVAR-MODDIY ZAXIRALARNING HISOBINI YURITISH VA UNING TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH.

3.1. Xo'jaobod tumanidagi Xo'jaobod Gilmon fermer xo'jaligida tovar-moddiy zahiralari tahlili

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik faoliyati jarayonining yakuniy bosqichidan olinadigan tayyor mahsulotlarning tannarxidagi sarflangan xom ashyo va materiallarning ulushini imkoniyat boricha kamaytirish muhim o'rin tutadi, chunki talab va taklifdan kelib chiqqan holda ularga o'rnatilgan baho mahsulotlarning xaridorlik darajasini belgilaydi. Ushbu muomalalar va talablardan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishni tashkil qilayotganda tabiiy va moddiy resurslardan unumli foydalanish kerak.

Bu haqda, O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov : "...birinchi navbatda, resurslar va energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hisobidan tejamkorlik rejimini yanada qat'iyalashtirish mo'ljallanmoqda"- deb aytib o'tdilar.

Hozirgi jarayonda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishlab chiqarish hajmini keng ko'lamda kengaytirish va ularni rivojlanishi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Bunda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati o'ta yuqori va xaridorgir bo'lishi ularning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yaxshilanishiga hamda moliyaviy barqarorlikka erishishlariga olib keladi. Albatta bunday yuqori samaradorlikka erishishda ishlab chiqarilayotgan mahsulotga ketadigan materiallarning ulushi ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bu o'z navbatida, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moddiy resurslarga bo'lgan ehtiyojni bir tomondan oshirilishi, ikkinchi tomondan ushbu zahiralarning qiymatining bozor talablarini inobatga olib, mahsulot tannarxining qanchaga tushishini hisobga olishni taqozo etadi.

Xo'jalikning tovar-moddiy zaxiralari bilan o'z vaqtida, zaruriy miqdorda belgilangan sifatda hamda bir maromda ta'minlanganligi, ulardan ratsional foydalanish pirovardida uning iqtisodiy rivojlanishiga va taraqqiy etishi uchun har tomonlama ta'sir etadi.

SHu boisdan, korxonalarda yaratilayotgan mahsulotda moddiy resurslarning

ulushi qanday salmoqni tashkil etishini tahlil qilish muhimdir.

Avvalgi bobda Xo'jaobod Gilmon fermer xo'jaligida yaratilgan mahsulotlarning tarkibidagi moddiy xarajatlarning ulushini ko'rib o'tgan edik. Xo'jalikda asosan paxta va bug'doy yetishtirilib, ularning tarkibidagi moddiy xarajatlari paxtachilikda 42,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, bug'doy yetishtirish xarajatlari tarkibida ushbu xarajat turi 65,4 foizga teng bo'lgan.

Shuningdek, xo'jalikda tovar moddiy zaxiralari tarkibiga e'tibor qaratganimizda (2-jadvalda) xo'jalikda 2012 yilda jami tovar-moddiy zaxiralari 41044 ming so'mga teng bo'lgan bo'lsa, 2013 yilda ularning qiymati 91962 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan 37570 ming so'm ishlab chiqarish zaxiralari va 34392 ming so'm tugallanmagan ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda. 2012 yilda jami tovar-moddiy zaxiralari tugallanmagan ishlab chiqarish xissasiga to'g'ri kelgan.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish sharoitida har qanday xo'jalik asosiy maqsadiga erishish uchun ishlab chiqarish xarajatlarini jumladan materiallardan tejab-tergab foydalanishga alohida e'tibor beradilar. Chunki, shuning natijasida ular o'z foydalarini ko'paytirishga, oqibat natijada foydalilik darajasini oshirishga erishadilar. Mahsulot ishlab chiqarishda materiallarning ahamiyati ulkan. Ularsiz ayrim hollarda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati cheklanadi ayrim hollarda esa umuman mumkin emas.

Mehnat predmetlaridan samarali foydalanish natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning o'rtacha xarajatlari yoki tannarxlari pasayadi. Buning natijasida korxonalarning sof foydalari ortadi. Materiallardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yishda iqtisodiy tahlilning ahamiyati kattadir. Xo'jalikda materiallardan qay darajada foydalanilayotganligini tahlil etish natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga sarflanayotgan harajatlarni tejash maqsadida foydalanilmay qolgan ichki imkoniyatlarni topish mumkin.

Ishlab chiqarish jarayonlarining natijasi hamda samaradorligi ularning materiallar bilan ta'minlanganligiga bevosita bog'liqdir. Chunki xo'jalikda yetishtirilayotgan mahsulotlarni hajmi, sifati ulardagi material resurslarining talab

darajasida bo'lishligini ob'ektiv ravishda taqazo etadi. Materiallardan foydalanishni tahlil etishdan maqsad ishlab chiqarish jarayonida ulardan foydalanishda ortiqcha sarf-xarajatlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, bu holda mahsulot hajmi qanchaga kam yaratilganligi yoki moddiy resurslardan samarali foydalanish natijasida qancha qo'shimcha mahsulot barpo etilganligini aniqlash bo'lib hisoblanadi.

Mahsulotlarning o'rtacha xarajatlari ya'ni tannarxlari ko'p jihatdan xom ashyo va materiallardan samarali foydalanish ko'rsatkichlariga bog'liqdir.

Materiallar miqdorini rejalashtirilgan hajmda tayyorlash mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarish uchun imkoniyat yaratadi. Materiallardan tejab-tergab foydalanilmasa hamda ularning amaliyotdagi foydalanilishi belgilangan me'yorlarga nisbatan ortiqcha bo'lsa, u holda keltirilgan materiallar mahsulot yetishtirish davomiyligi rejasini bajarish uchun yetarli bo'lmaydi. SHu bilan birgalikda materiallardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini tahlil etilganda alohida materiallardan foydalanishni tadqiq qilish bilan birgalida xo'jalik bo'yicha materiallardan foydalanishni o'rganish maqsadga muvofiqdir. Uni quyida keltirilgan jadval yordamida amalga oshirish mumkin:

5-jadval.

“Xo'jaobod Gilmon” fermer xo'jaligida materiallardan foydalanish xolati tahlili.

No	Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	O'zgarish: +, -
1	Tovar mahsulot qiymati, ming so'm	146171	174540	+28369
2	Ishlab chiqarish xarajatlari, ming so'm:	137100	164091	+26991
	SHu jumladan, material sarflari	45670	61960	+16290
3	Sof foyda, ming so'm	4021	1890	-2131
4	Material qaytimi, so'm	3,2	2,8	-0,4
5	Material sig'imi, so'm	0,31	0,35	+0,04

Materiallardan foydalanish samaradorligi ikki ko'rsatkich orqali aniqlanadi:

ya'ni, material qaytimi va material sig'imi. Xar ikki ko'rsatkichning o'zgarishiga ikki omil, ya'ni tovar mahsuloti qiymatining o'zgarishi va materiallar sarfi qiymatining o'zgarishi ta'sir ko'rsatadi.

“Xo'jaobod Gilmon” fermer xo'jaligida materiallardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichi pastlaganligini ko'rishimiz mumkin. Xo'jalikda 2012 yilda material qaytimi ko'rsatkichi 3,2 so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda ushbu ko'rsatkich 2,8 so'mga teng bo'lmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, xo'jalikda ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida materiallar sarfi ortgani bilan ular hisobiga olinayotgan tovar mahsulot, o'z navbatida sof foyda miqdorlari kamaygan.

Demak, materiallardan qanchalik unumli va samarali foydalanish natijasida uning iqtisodiy samaradorligi xam ortib borar ekan. Xo'jalikda kelgusida materiallardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilishi lozim.

Xozirgi sharoitda moddiy boyliklardan foydalanish ustidan nazortani kuchaytirish, xo'jasizlikka qarshi kurash, mahsulot tannarxida moddiy xarajatlarning ulushini kamaytirib borish masalalariga alohida e'tibor beriladi. Jumladan, moddiy va mehnat resurslarini to'g'ri, tejimli sarflash iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda, aholining moddiy farovonligini oshirishda muhim omildir.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi o'z navbatida mehnat buyumlarining ortishiga olib keladi. Agar xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlarida moddiy xarajatlarning ishlab chiqarish xarajatlarining asosini tashkil etishini nazarda tutsak, u holda material sarfini kamaytirishning naqadar xalq xo'jaligida katta ahamiyatga ega ekanligini ko'ramiz.

3.2. Tovar-moddiy zaxiralarning hisobini takomillashtirish.

Iqtisodiyotni boshqarishdagi o'zgarishlar, bozor munosabatlariga o'tish buxgalteriya hisobini tashkil qilish va olib borishga katta ta'sir ko'rsatadi. Hisobning xalkaro tizimlariga o'tish amalga oshirilmoqda, bu uning uslubiylatining Yangi shakllarini ishlab chiqishni talab qiladi. Hisobchidan korxona moliyaviy xolatini ob'ektiv baxolarini bilish, moliyaviy taxlili usullarini egallash, qimmatli kog'ozlar bilan ishlashni mukammal bilish, bozor sharoitlarida pul mablag'lari investisiyalarini hisoblash va boshqalarni talab qiladi. Ushbu xususiyatlarni hisobga olgan xolda xozirgi davrda hisobchini "moliyaviy menejer", "hisobchi-taxlilchi" deb atash xam mumkin.

Boshqaruv vazifalariga an'anaviy ravishda ishlab chiqishni tayyorlash, rivojlantirish, moddiy texnik ta'minot, sotish (marketing), buxgalteriya hisobini olib borish va buxgalteriya faoliyatini amalga oshirish, tayyor mahsulotlarni sotish xamda kadrlar masalasini xal qilish kiradi. Kompyuterda ishlab chiqish nazariyasiga binoan ular vazifaviy tizimlar deb ataladi. Boshqaruv jarayonida buxgalteriya hisobi katta ro'l o'ynaydi, bunda barcha axborotlarning 60% jamlanadi.

Shaxsiy kompyuter bazasida avtomatlashtirilgan ish joylarini tashkil qilinishi, korxonalarda maxalliy hisoblash tarmoklarini yaratish, axborot bazasini tashkil qilish va iqtisodiy vazifalar majmuasini shakllantirishda yangi talablarni ilgari suradi. Shunda ma'lumotlarning taksimlangan bazalari tizimini yaratish, turli foydalanuvchilar urtasida axborotlarni almashtirish, kompyuterda boshlang'ich xujjatlarni avtomatik shakllantirishning imkoniyatlari paydo bo'ladi. Bunday sharoitlarda turli vazifaviy tizimchalar majmualari o'rtasidagi aniq chegaralar buzila boshladi, bu ilk navbatda buxgalteriya hisobining axborot bazasida namoyon bo'ladi.

Boshqaruv masalalarining vazifalararo majmualari vujudga keldi. Buxgalteriya hisobi bo'yicha dasturiy vositalarning yangi turlari hisobning turli uchastkalari majmualari axborotlarini birlashtiradi. Misol uchun, mexnat va ish haqi hisobining namunaviy loyixalarida bir vaqtda fondlarga to'lovlar bo'yicha

to'lov xujjatlari (daromad holatini to'lash, nafaqa jamg'armalariga ajratmalar, tibbiyot sug'urtasi, bandlik jamg'armasiga hisoblash bo'yicha to'lov topshiriknomalari) bo'yicha to'lov xujjatlarini kuchirib berish ko'zda tutilgan, bunday mashina dasturini bajarilishi hisob vazifalarining ikkita majmuasini mexnat va ish haqini hisobi xamda moliyaviy hisoblash operatsiyalarini birlashtiradi. Moddiy boyliklar hisobi tayyorlash mahsulotlarining hisobi va boshqalar bo'yicha vazifalar majmuasida xam xuddi shunga uxshash misollarni keltirish mumkin.

Vazifalararo majmuani tashkil qilish "materiallar" dasturi misolida xam ko'rib chiqish mumkin. Uning asosini korxonadagi maxalliy hisoblash tarmog'i sharoitlarida yaratilgan yagona ma'lumotlar bazasi tashkil qiladi. Moddiy boyliklarning mavjudligi va xarakatini hisobga olishni uchta bo'lim mutaxassislari amalga oshirmoqdalar: omborlar, hisobxona, moddiy- texnik ta'minot bo'limi. Dasturiy majmua o'z ichiga omborchi (ombor) moduli, hisobxona moduli, moddiy-texnik ta'minot bo'limi modulini birlashtiradi.

Omborchining dasturiy moduli ombor kartotekasini olib borilishini: hisobchining ma'lumotli qismida moddiy boyliklar xarakati bo'yicha xujjatlarni buxgalteriya hisobi to'ldirilishini, materiallarni xarakati bo'yicha operatsiyalar nazoratini, materiallar xarakati miqdori va so'mmasini aks ettirilishi hisobi, moliyaviy hisob-kitoblarni ta'minlaydi. Moddiy-texnik ta'minot iqtisodchisi moddiy boyliklarning xarakati bo'yicha xujjatlarni shakllantirishni olib boradi.

Buxgalteriya hisobi axborotli tizimlari asosida majmualarga birlashtirgan hisobning aloxida uchastkalari tomonidan bajariladigan hisob vazifalarini bajaradi. Vazifalar majmuasi iqtisodiy mazmunini aniqlash, tasdiklangan sintetik schyotlarni olib borish boshlang'ich birlamchi va yakuniy xujjatlar, hisoblash algoritmlarning o'zaro aloqalari xamda hisobning aniq vazifaning uslubiy materiallari va me'yor xujjatlari bilan ta'riflanadi. Buxgalteriya hisobining axborotli tizimchalari an'anaviy ravishda vazifalarning kuyidagi majmualarini uz ichiga oladi: "asosiy vositalar hisobi", "moddiy boyliklar hisobi", "mexnat va ish haqi hisobi", "tayyor mahsulotlar hisobi", "moliyaviy hisoblash operatsiyalarni

hisobi", "ishlab chiqarish xarajatlar hisobi", "yozma hisob" va hisoblarni tuzish.

Ichki aloqalar buxgalteriya hisobining ayrim vazifalari majmualari va uchastkalarining axborotli o'zaro xamkorliklarni aks ettiradi.

Tashki aloqalar boshqaruv vazifalarini amalga oshiruvchi boshqa bo'limlari xamda tashkilot bilan o'zaro xamkorlikni aks ettiradi

Hisob vazifalari majmualarining o'zaro bog'lanishi buxgalteriya hisobi uslubiyatining buxgalteriya schyotlarni olib borish va provodkalarini bajarish tizimiga kiritilgan.

Buxgalteriya hisobining asosiy vositalar hisobi, moliyaviy hisoblash operasiyalar hisobi, moddiy boyliklar hisobi, mehnat va ish haqi hisobi kabi uchastkalari uchun boshlag'ich dastlabki ma'lumotlar xo'jalik operasiyalarni boshlang'ich xujjatlarda sodir bo'ladi.

Iqtisodiy vazifalar ishlab chiqarish yangi axborot texnologiyalarni avtomatlashtirilgan ish joy va hisoblash tarmog'i va yakka tarkibdagi loyixalar har xil konfiguratsiyasida, ya'ni markazlashgan, taksimlangan maxalliy ma'lumotlar bazasini tashkil qilishga mo'ljallangan. Bunda korxona va tashkilotlar uchun umumiy bo'lgan bazadagi massivlarni ishlovchilar haqida materiallar, ma'lumotnomaviy bo'linmalar, lavozimlar, xamda faqat buxgalteriya vazifalarni yechishda foydalanilgan maxalliy bazalarga ajratish mumkin. Buxgalteriya hisob schyotlarida namunaviy provodkalar, xo'jalik operasiyalar qayd daftari, shaxsiy hisob raqami, asosiy vositalari yuklama varaqchalari yaratiladi.

Buxgalteriya hisobining dasturiy ta'minlanishiga to'lik asosda bir qator ma'lumotli dasturlarni kiritish mumkin, shu jumladan: "Maslaxatchi-hisobchi", "Soliq xuquqi". "O'zbekiston Respublikasi soliqlar maslaxatchi - plyus".

Avtomatlashtirilgan ish joyi (AIJ) - yakuniy foydalanuvchiga ma'lumotlarni ishlab chiqarish va aniq muammoli soxada boshqaruv vazifalarini avtomatlashtirishni ta'minlovchi axborot dasturiy va texnik resurslar majmui sifatida namoyon bo'ladi.

AIJ tashkil qilinishi shuni nazarda tutadiki, axborotlarni jamlash, saqlash va qayta ishlash bo'yicha asosiy operasiyalar hisoblash texnikasini zimmasiga

yuklanadi, iqtisodchi esa qo'lda bajariladigan operasiyalar va boshqaruv qarorlarini tayorlashda ijodiy yondashishni talab qiluvchi operasiyalarning bir qismini bajaradi.

AIJ asosiy oddiy vazifalaridan biri axborotli-ma'lumotnomali bazalarni to'ldirish, qayta ishlash va saqlashdir. Ushbu vazifani yaxshi darajada bajarish uchun foydalanuvchining ish qobiliyatiga va iqtisodligiga bog'lik. Boshqaruv jarayonlarni amalga oshirish sharoitlarda AIJ tadbiriq etishdan maqsad boshqaruv vazifalari majmualashtirishni (integrasiyasini) kuchaytirishdan iborat.

Axborot to'plamlarning har xil turlari hisob vazifalarni ishlab chiqarishga asos bo'ladi. 1 chi turdagi birlamchi xujjatlarni yozish va ro'yxatga olish bosqich bilan bog'lik. Chunki maxalliy kompyuterdan foydalanishda ularni mashina bilan shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi va ushbu xujjatlarni yaratish jarayoni avtomatlashtiriladi.

1chi turdagi axborot to'plamlari o'zgaruvchan axborotlarning fayllari, massivlar va shaxsiy kompyuter xotirasidagi shartli doimiy axborotlar bazasi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxona, tashkilot va muassasalarda mavjud mablag'lardan samarali foydalanish, korxona ixtiyoridagi aktivlarning samaradorligini maksimal darajada ko'tarish asosiy vazifa bo'lib hisoblanadi. Chunki mablag'lardan samarali foydalanish korxona aktivlari unumdorligini oshirishda va bu orqali maksimal darajada foyda olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga erishish uchun korxonalar avvalom bor o'z aylanma mablag'laridan to'g'ri foydalanishi, shu bilan birga xarajatlarini kamaytirishga harakat qilishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishimizda aynan shu masala, tovar-moddiy zaxiralardan umumli foydalanish va ular xarakatini hisobga olib borish keng o'rganildi. Bitiruv malakaviy ishi ustida ilmiy izlanishlar olib borish shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish uchun yetarli me'yoriy-huquqiy hamda uslubiy asoslar ishlab chiqilgan. Ularni o'rganib chiqish natijasida quyidagi umumiy fikr va mulohazalarga ega bo'ldik.

Tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishda asosiy e'tibor materiallarni moddiy javobgar shaxslar bo'yicha to'g'ri turkumlanganligi va ularning xarakatini xujjatlashtirishga qaratiladi. Bizning nazarimizda, materiallardan samarali foydalanish uchun tejamkorlik bilan moddiy rag'batlantirish o'rtasida o'zaro bog'liqlik o'rnatilmasa uning samarasini kutib bo'lmaydi. Shuning uchun xo'jalikdagi moddiy javobgar shaxslarga majburiyat bilan birga tegishli huquq va imtiyozlar ham berilishi maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Tovar-moddiy zaxiralardan foydalanish va ularni hisobga olib borish bevosita moddiy javobgar shaxslar tomonidan rasmiylashtirilgan boshlang'ich xujjatlar yordamida amalga oshiriladi. Shuning uchun bunday xujjatlarning o'z vaqtida va xolisona tuzib borilishi buxgalteriya hisobi tomonidan qat'iy nazorat qilib borilishi kerak. Bu materiallar hisobi va ularni hisobotlarda to'g'ri aks ettirib borilishiga zamin yaratadi.

Iqtisodiy o'zgarishlar jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotgan bir davrda buxgalteriya hisobi va soliq qonunchiligida ham o'zgarishlar tez-tez kuzatilmoqda.

SHu nuqta'yi nazardan xo'jalik faoliyati va uning buxgalteriya hisobi yuqori malakali mutaxassislar tomonidan doimiy ravishda tekshiruvdan o'tkazib turilishi hozirgi kunning zaruriy talabidir.

YUqoridagi fikrlardan kelib chiqib, bitiruv malakaviy ishimizda o'rganilgan mavzu yuzasidan quyidagi umumiy hulos va takliflarni berdik:

Birinchidan, aksariyat korxonalarda, xususan fermer xo'jaliklarida mustaqil hisob siyosati mavjud emas. Bu esa buxgalteriya hisobini qat'iy tartibda yuritilmaslikka, ba'zan nazoratni izdan chiqishiga sabab bo'ladi.

Ikkinchidan, materiallar harakatini xujjatlashtirish va ularni tegishli hisob jurnallarida aks ettirib borish tartibi va uslubiyoti so'ngi yillarda nashr etilayotgan zamonaviy buxgalteriya hisobini o'rgatuvchi adabiyotlarda to'la qonli ochib berilmagan.

Uchinchidan, ma'lumki, sohaga oid qonun xujjatlari va ilmiy adabiyotlarda materiallar hisobini me'yoriy yo'qotish darajalari e'tibordan chetda qolib ketmoqda. Bizningcha, korxonalarda materiallar hisobini tashkil etishda me'yoriy yo'qotish darajalarini mutasaddi tashkilotlar tomonidan qayta ko'rib chiqish zarur deb hisoblaymiz.

To'rtinchidan, moddiy javobgarlik bilan birga rag'batlantirishni o'zaro muvofiqlashtirish lozim. Aytaylik, xom-ashyo omborida me'yoriy yo'qotish darajasini pasaytirish chora tadbirlarini ishlab chiqqan moddiy javobgar shaxslarga iqtisod qilingan me'yoriy yo'qotishlar qiymatida mukofotlash, yoki me'yordan ortiqcha yo'qotishlar surunkali kuzatilayotgan vaqtda ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlagan shaxslarni mukofotlash.

Bitiruv malakaviy ishimizning yakunida aytib o'tilgan xulosalar va takliflar korxonalarda amaliy jixatdan yechimini topsa va qo'llanilsa, o'ylaymizki jamiyatda iqtisodiy rivojlanish yanada o'sadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent, O'zbekiston. 2009 yil. 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. – T.: 1996 yil 30 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni. –T.: 1998 yil 30 aprel
4. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. T., 2000 y.
5. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi.T., 2008 y.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 26 yanvar, PQ-1047-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2012 yil 22 oktyabr, PF-4478-son

III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari va O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy-me'yoriy hujjatlari

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2011 yil PQ-1675-sonli Qaroriga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va

sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizom. T., 2012 y.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Eksport qiluvchi korxonalarni moliyaviy va kredit yo'li bilan qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 290-sonli qarori. –T.: 31.12.2008 y
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Iqtisodiyotning real sektori sohasida korxonalarni va investitsion faollikni kredit yo'li bilan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash masalalarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risida" 288-sonli qarori. –T.: 31.12.2008 y.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ichki valyuta bozorida almashuv kurslarini birxillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-sonli qarori. –T.: 2001y
13. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining "1 yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risida" nizom. O'Z AV tomonidan 1192-son bilan ro'yxatga olingan –T.: 2002 y.
14. O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobining milliy standartlari, To'plam. T.: O'zR BAMA nashriyot markazi. 2002. 220 b.
15. "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya - xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha ko'rsatma", O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar Milliy assotsiatsiyasi, -T., 2003 y.

IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

16. I.Karimov. Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: "O'zbekiston". 2009y. -56 b.
17. I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: "O'zbekiston" 2010 yil
18. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi." Prezident Islom Karimovning 2008 yilda

mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi ro'znomasi 2009 yil 14 fevral, № 33-34 (4696-4697)

19. “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi”. Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi ro'znomasi. 2011 yil 21 yanvar.

20. “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi”. Prezident I.A.Karimovning 2011 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2012 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 19 yanvarda bo'lib o'tgan majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi ro'znomasi. 2012 yil 20 yanvar.

21. “2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi”

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. 18.01.2014 yil

V. Darsliklar

21. Karimov A.A. Buxgalteriya hisobi. /Darslik -T.: SHarq, 2004.-592 b.
22. Sotivoldiyev A. S. Zamonaviy buxgalteriya xisobi. Darslik. –T. BAMA, 2005 y 234 b.
23. Jo'raev N., Bobojonov O., Abduvaxidov F., Sotvoldiyeva D. Moliyaviy va boshqaruv xisobi. Darslik. -T.: 2007 y 344 b.

24. Jo'raev N., Xolbekov R., Abduvaxidov F., Ilxomov I. Buxgalteriya xisobi, iktisodiy taxlil va audit. Darslik. -T.: 2007 y. 250 b.
25. R.O.Xolbekov. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. – T.: TDIU, 2010. – 212 b.
26. M.M.To'laxo'jaeva va boshqalar. Audit. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2010. – 456 b.
27. N.YU.Jo'raev, F.T.Abduvaxidov, D.A.Sotvoldiyeva. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. Darslik. – T.: TDIU, 2010. – 287 b.
28. O.Bobojonov, X.Axmedov, A.Turkmanov. Moliyaviy hisob. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 536 b.
29. T.Qudratov, N.Fayziyeva. Korxonalar faoliyatining tahlili va nazorati. Darslik. – T.: Voris-nashriyot, 2012. – 256 b.
30. A.V.Vahobov, N.F.Ishonqulov, A.T.Ibrohimov. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. - T.: Iqtisod-Moliya, 2013. – 600 b.

VI. O'quv qo'llanmalar

31. Bekmuradov A. va boshqalar. Moliya va bank tizimidagi islohatlar samarasi. –T.: TDIU. 2005. 62 b.
32. O'razov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining kontseptual masalalari/ K.B. Urazov. - T.: Fan nashriyoti, 2005. - 236 b.
33. B.YU.Xodiyev, A.SH.Bekmuradov, U.V.G'afurov. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir” hamda “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir” nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 340 b.
34. O.Bobojonov, K.Jumaniyozov, X.Axmedov, A.Turkmanov. Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011. – 463 b.

VII. Statistika to'plamlari ma'lumotlari

35. “Soliq solish va buxgalteriya hisobi” jurnali. –T.: 2010-2012 yillar.
36. “O’zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” jurnal. –T.: 2010-2012 yillar.
37. “Bozor, pul va kredit” jurnal. –T.: 2010-2012 yillar.
38. “Solik va bojxona xabarleri” gazeta. –T.: 2009-2011 yillar.
39. O’zbekistonning 2011-2012 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko’rsatkichlari. –T.: O’zbekiston, 2011.
40. Xo’jaobod tumaniidagi Xo’jaobod Gilmon fermer xo’jaligining yillik moliyaviy va statistika hisobotlari.

VIII. Internet saytlari

41. Учебные материалы по Бухгалтерскому учету. On-line
<http://www.ic.omskreg.ru/econrus/win/library/3/37/371/3713/table.htm>
42. <http://www.imce.ru>
43. “Norma” 2012-2013
44. www.uz.report.com.
45. www.ceep.uz.
46. www.consultant.ru
47. www.comersant.ru
48. <http://www.soliq.uz> (O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi sayti)
49. <http://www.mf.uz> (O’zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi sayti)
50. [www. Bir.uz](http://www.Bir.uz)
51. <http://www.rbc.ru/consulting>.